# Pirnazar DAVRONOV

MATEMATIKADAN
MISOL VA MASALALAR YECHISH

2-KITOB

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLAGI

SAMARQAND VILOYAT PEDAGOGLARNI YANGI
METODIKALARGA O'RGATISH MILLIY MARKAZI

Pirnazar **DAVRONOV**

MATEMATIKADAN
MISOL VA MASALALAR YECHISH

2-KITOB

Pirnazar Davronov. Matematikadan misol va masalalar yechish. Metodik qo'llanma. 2-kitob. – "Qamar media" nashriyoti. Toshkent – 2023-yil, 295 bet.

Taqrizchilar:

E.Mardanov – O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti "Aniq fanlar" kafedrasi dotsenti;

A.Qudratova – Samarqand viloyati XTXQTMOHM, "Aniq va tabiiy fanlar" kafedrasi dotsenti;

M.Moshonov – Samarqand viloyati Nurobod tumani xalq ta'limi bo'limiga qarashli 21-maktab matematika fani o'qituvchisi.

Mazkur metodik qo'llanmani yozishdan maqsad, insonlarning ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga ko'maklashish asosida jamiyat, mamlakat taraqqiyotiga hissa qo'shishdan iborat. Shu ma'noda maktab matematikasini o'qib-o'rganuvchi o'qituvchilar, ayniqsa repetitorlik qiluvchi hamkasblar, maktabdan keyingi ta'limga tayyorgarlik ko'ruvchi o'quvchilar davlat test markazi tomonidan nashr etilgan axborotnomalardagi misol va masalalarni yechishda biror qiyinchlikka duch kelishsa, biz yozgan kitoblarning foydasi tegsa, o'zimizni qo'yilgan maqsadimizga erishgan hisoblardik.

S O‘ Z   B O S H I

Assalomu alaykum muhtaram kitobxon. Sizni muhtaram, - deb atadim. Boisi, Olloh insonni muhtaram va mukarram qilib yaratgan. Bunga barchamiz birdek musharraf bo‘lishimiz uchun shahdu shijoat ko‘rsatmog‘imiz darkor. Men, 1973 - 2018 yillar davomida oily o‘quv yurtlarda faoliyat ko‘rsatdim va doimo talabalarimdan ma’lum qismining yaxshi o‘qimasligidan tashvishlanib yashadim. Sababi, yoshlarimizdan har biri, jonajon Vatanimizning porloq kelajagini yaratishga, uzining hissasini qo‘shadigan insonlar hisoblanadi.

2018-yilning sentabr oyidan boshlab “Samarqand viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi”da faoliyat ko‘rsatayapman. Shu joyga ishga kelib, talabalarimning yaxshi o‘qimasligi sabablarini bildim.

Markaz rahbarining topshirig‘iga asosan, malaka oshirishga kelgan tinglovchi maktab o‘qituvchilarining o‘zi o‘qitadigan fani bo‘yicha bilimlari ikki yili davomida o‘rganildi. Afsuski, maktablarning biror o‘quv fani bo‘yicha o‘qituvchilarning o‘zlashtirishlari 50% dan oshmadi. Jahonda o‘qitilishiga eng asosiy e’tibor qaratiladigan matematika fani bo‘yicha, bizning o‘qituvchilardan o‘rtach 57 foizi qoniqarsiz natija ko‘rsatishdi. Mamlakat, bu darajadagi o‘qituvchilarning o‘quvchilaridan nimani kutishi mumkin?

Bu salbiy oqibatning bosh sababi, aksariyat o‘qituvchilarning davlatimiz tomonidan chiqarilgan ta’lim to‘g‘risida qabul qilinayotgan qonunlar, farmonlar, qarorlar va

boshqa me'yoriy hujjatlardan behabarligi, o'qitadigan fani, uni o'qitish metodikasi, pedagogika, psixologiya fanlari yutuqlarini o'zlashtirib, ularni kasbiy-shaxsiy faoliyatiga qo'llash bo'yicha, o'z ustida, talab darajasida ishlamasligidan iborat.

Malaka oshirishga kelgan o'qituvchilarining e'tirof etishlaricha, 50% dan ortiq o'quvchilar o'zlarining o'quv imkoniyatlaridan past darajada o'qigan holda maktablarni bitirishmoqda.

Men, bunday ma'lumotni bergan o'qituvchilardan biriga "Aytaylik, sinfingizda 25 nafar o'quvchi bor, ulardan biri sizning farzahdingiz. 24 nafar o'quvchi yaxshi o'qiyapdi, bitta sizning farzandingiz yomon o'qishiga rozimisiz?"- degan savol bilan murojaat qilishni odat qilganman. Ular keskin ravishda "yuq" deb javob berishadi. Shunday ekan, 50% dan ortiq o'quvchilarni savodsiz qoldirishni qanday baholaysizlar? O'sha bilimi past bolaning ota-onasi qariganda, o'zini eplay olmaydigan bu inson ularga qanday ko'maklashadi? Bu insonning zimmasiga tushadigan mamlakat yukini kim ko'taradi? kabi savollarimiz, o'qituvchilarga o'zining ta'sirini ko'rsatmoqda, o'ylantirib qo'ymoqda. Ularning aksariyat qismi, o'z ustimizda ishlab, o'quvchilarni yaxshi o'qitmasak bo'lmas ekan,- degan fikrlarga kelishmoqda.

Xalqimizda "Erni er qiladigan ham, qora yer qiladigan ham …"-degan naql bor. Shunga o'xshash, mamlakatni yuqori darajada rivojlantiradigan ham, taraqqiyotini susaytiradigan ham o'qituvchilar hisoblanadi. Chunki, mamlakat taraqqiyoti, undagi yetuk kadrlariga bog'liq. Bunday kadrlarni esa o'qituvchilar tayyorlab beradi. Demak, Ona Vatanimizning kelajakdagi

taraqqiyoti, bevosita uning oqituvchilari va murabbiy mutaxassislari kasbiy-shaxsiy faoliyatlarining natijadorligiga bog'liq.

Repetitorlik qiluvchi o'qituvchi mustaqil izlanadi, mustaqil o'rganadi, o'z ustida tinimsiz ishlaydi. Barcha o'qituvchilarning oz ustida tizimli ishlashlariga erishmasdan, Vatan taraqqiyotiga erishib bo'lmaydi.

Hazrat Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf o'gitlarida aytilishicha, muallimlik eng yuksak farz amali bo'lib, ustozlar haqqiga avvalo Olloh, farishtalar, barcha osmon va er egalari, hatto uyasidagi chumoli, suv ostidagi baliqlar ham salovat aytib turishar ekan. Har qanday kasb egasining, ayniqsa o'qituvchining o'z kasbiy-shaxsiy faoliyatiga mas'uliyatsizlik bilan yondashishi Olloh oldida katta gunoh, Vatanga xiyonat hisoblanar ekan. Bundan ko'rinadiki, Ikki dunyo saodatini o'ylaydigan har bir inson kasbiga sodiq bo'lmog'i darkor.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf Ibn Sinoning ilm o'rganishi tartibi misolida, qadimgi o'qib-o'rganish (rejasi)ning 7 bosqichini quyidagicha bayon qilgan: 1) 10 yoshgach madrasada Qur'oni karimni yod olingan; 2) qonun, ya'ni shariat ilmi; 3) hisob (matematika); 4) falsafa; 5) mantiq; 6) tib; 7) tabbiiy fanlarni o'rganilgan. Ibn Sino matematika ilmini, ko'mir sotib tirikchiligini o'tkazadigan olimdan olgan.

Jahonda "Singapur mujizasi" iborasi ko'p ishlatiladi. Singapur davlati asoschisi Li Kuan Yuga, siz "Singapur mo'jizasi"ga qanday erishdingiz, - degan savol ko'p berilar ekan. Li Kuan Yuning javobi: "Men Singapurda mo'jiza yaratmadim. Men faqat Vatanim oldidagi burchimni bajardim,

xolos. Davlat byudjetini ta'limga yunaltirdim. Muallimni eng quyi tabaqadan Singapurdagi eng yuqori martabaga koʻtardim. Davlatdagi "moʻjiza"larni qilgan insonlar muallimlardir. Ular ilm, axloq, mehnat va haqiqatni sevadigan kamtar avlodni etishtirib chiqardilar. Buning uchun ulardan minnatdormiz".

Respublikamiz Prizidenti Shavkat Mirziyoyv ham davlat boshiga kelgan kundan boshlab, asosiy e'tiborini ta'lim tizimini tubdan isloh qilishga qaratmoqda. Ta'lim toʻgʻrisidagi chiqargan barcha farmonlari, qarorlari, Oliy Majlisga murojaatnomalari, xalq ta'limi xodimlari bilan muloqatlari mazmun mohiyati maktabgacha ta'limni, maktab ta'limini rivojlantirishga, oʻqituvchi va murabbiylarni kasbidan tashqari ishlardan, ortiqcha qogʻozbozliklardan ozod qilishga, ularning ijtimoiy, iqtisodiy mavqeni oshirishga qaratilgan. Jumladan, Oʻzbekiston Republikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyv huzurida 2019-yil 23-avgust kuni "Yoshlarni vatanparvarlik ruxida tarbiyalash va jamiyatda oʻqituvchi mavqeini oshirish" masalalariga bagʻishlab oʻtkazilgan videoselektr majlisi Bayonida "Oʻzbekiston Republikasi Prezidenti Administratsiyasi, Hukumati, barcha darajadagi davlat va xoʻjalik boshqaruv organlari, mahalliy hokimliklar rahbarlarining e'tibori maktab ta'limini rivojlantirish buyuk umummilliy maqsadga, umumxalq harakatlga aylanishi, ustozlarga yuksak hurmat-ehtirom koʻrsatish – jamiyatimizda oliy qadriyat darajasiga koʻtarilishi zarur ekanligi koʻrsatilsin".

Joylarda barcha rahbarlar va mutasaddilar "Butut kuchni xalq ichidan olaylik, quchoq ochib maktablarga boraylik" shiori ostida maktab ta'limini rivojlantirishga yunaltirilgan buyuk

umummilliy maqsadga, umumxalq harakatlga ytakchilik qilishi ko'rsatib o'tilsin" kabi qator, juda muhim qarorlar o'z aksini topgan.

Respublikamiz xalqaro baholash tashkilotlariga a'zo bo'ldi. 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunsh darajasi baholash uchun PIRLIS, 4- va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yunalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholashda TIMISS, 15 yoshli ta'lim oluvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yunalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashda PISA, jahon miqyosida katta e'tibor qaratilayotgan STEAM (S – scitnce (tabiiy fanlar), T – technology (texnologiya), E – engineering (muxandislik san'ati), A – art (ijod), M – mathematics (matematika)) dasturi asosida amalga oshiriladigan bo'ldi.

Ushbu tashkilotlarning barchasida matematik ta'limga aloxida e'tibor qaratilgan. Bunga hamohang tarzda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4708-son Qarori e'lon qilindi.

Biroq, 2022-yilda Respublikamiz oily o'quv yurtlariga hujjat topshirgan 1 073 821 abituriyintlardan 51,2 foizi, ya'ni 550 102 nafarining test natijalari o'ta afsuslanarli, biz pedagoglar uchun esa uyat bo'ldi. Ular ko'rsatgan test natijalari 56,7 ballga ham yitmadi.

Muqaddas kitobimiz Qur'oni Karim "Iqro", ya'ni o'qi deb boshlangan bo'lsa, Payg'ambarimiz (s.a.v): "Beshikdan qabrgacha ilm izlang",- deb marhamat qilgan bo'lsalar, Imom

Pirnazar DAVRONOV

Buxoriy (r.a): "Dunyoda ilmdan boshqa najot yuq va bo'lmagay",-deb aytgan bo'lsa, Republikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "O'qituvchi va murabbiylar biz uchun ibrat namunasi, barcha insoniy fazilatlar timsolidir", - deb bizlarni ulug'laydi.

Biz muallim va murabbiylar kitoblarda va davlatimiz rahbari tomonidan shunchalik ulug'lanar ekanmiz, Ona Vatanimizning porloq kelajagi va avlodlarimizning bizdan rozi bo'lishlari, faxrlanishlari, ikki dunyomizning saodatli bo'lishi uchun kasbimizga sodiqlik bilan mehnat qilishimiz zarur.

Men, Davlat test markazi tomonidan 1996-2003 yillarda chop etilgan 89 ta "Axborotnoma" ning 77 tasida matematika fanidan berilgan 5773 ta misol va masalalarni, 2003 yildan so'ng "Matematika" va "Abiturient" ruknlarida e'lon qilingan misol va masalalarni yechib chiqqanman. Tabiiy-ki, malakalarini oshirishga kelgan maktablar o'qituvchilarda "70 yoshdan oshgan bobo shuncha ish qilayotgan ekan, men nima qilayapman",-degan fikrni uyg'otish, ularni o'z ustida ishlashga va repetitorlik qilishga yunaltirish maqsadida, yechilgan misol va masalalarimni matematika va fizika yunalishlari tinglovchilariga ko'rsataman. Ishlarni ko'rgan, mutaxassisligi qaysi fandan bo'lishiga qaramasdan, ularni kitob qilib chiqarishimni taklif etishadi, hamma uchun foydali bo'lishini ta'kidlashadi. Hatto ko'pchiligi, qo'lyozmalarimdan nushalar olishmoqdalar.

Hamkasblarimning takliflariga asosan, o'zim yechgan misol va masalalarimni o'quv qo'llanma shakliga nashr etishga kirishdim. Bunda, misol va masalalarning yechimlarini berishda,

kitobxonni ko‘proq mustaqil izlanishga, mustaqil fkrlashga, mustaqil ishlashga yunaltirishni maqsad qilib qo‘ydik, ya’ni o‘quvchi foydalanilgan formulalarni izlab topsin, masala yechilishining oson joylari, o‘quvchining qo‘liga qog‘oz, ruchka olib oxiriga yetkazishi uchun qoldirilgan. Boshqacha aytganda masalalarning yechimlarini berishda "Keys stadi" talablari e’tiborga olindi.

Masalalarni yechishga bunday yondashuv, ta’lim oluvchilarni bilim, ko‘nikma va malakani shakllantirish bilan birga, ularda kompetentli-faoliyatli bo‘lishlarini kuchaytiradi, o‘zluksiz ta’lim olish, ehtiyojlari va qobiliyatlarini rivojlantirish layoqatini hosil qiladi.

Kitob yozishning bosh maqsadi, insonlarning ma’naviy ehtiyojlarini qondirishga ko‘maklashish asosida jamiyat, mamlakat taraqqiyotiga hissa qo‘shishdan iborat.

"Matematikadan misol va masalalar yechish" nomli 2-kitob, 1998-yilda davlat test markazi tomonidan e’lon qilingan 12 ta axborotnomalarning 828 ta misol va masalalari, javoblar variantlari, yechimlar, to’g’ri javiblar, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati hamda mundarijadan iborat.

Xulosa qilib aytganda, barchamiz birgalikda Vatanimiz, elimiz manfaati yulida umr bo‘yi o‘quvchi bo‘lib qolaylik, eng muhimi mustaqil izlanib, mustaqil o‘rganib, yangidan yangi g‘oyalarni o‘zlashtiraylik, ularni hayotga tatbiq etishda haqiqiy pragmatik bo‘lib, millatimizning koriga yaraydigan azmu shijoatli, g‘ayratu jasoratli, aqlu zakovatli, jamiyat, davlat va oila oldida o‘zining mas’uliyatini chuqur anglaydigan, erkin fikrlovchi, faol, ilmni, axloqni, mehnatni va haqiqatni sevadigan, kamtar insonlarni o‘qitib tayyorlab beraylik.

1998-YIL, 1-AXBOROTNOMA

1. $6798 : 103 < 54 + 6x < 9156 : 109$ tengsizlikning barcha natural yechimlarini toping.

   A) $2; 3; 4$ B) $4; 5; 6$ C) $3; 4$ D) $4; 5$ E) $3; 4; 5$

   Yechilishi: $\frac{6798}{103} - 54 < 6x < \frac{9156}{109} - 54 \Rightarrow$

   $\Rightarrow \frac{6798 - 103 \cdot 54}{103} < 6x < \frac{9156 - 109 \cdot 54}{109} \Rightarrow$

   $\Rightarrow \frac{6798 - 5562}{103} < 6x < \frac{9156 - 5886}{109} \Rightarrow$

   $\Rightarrow \frac{1236}{103} < 6x < \frac{3270}{109} \Rightarrow 12 < 6x < 30 \Rightarrow$

   $\Rightarrow 2 < x < 5 \Rightarrow 3; 4$.   Javobi: C.

2. $2\frac{3}{5}$ va $\frac{1}{2}$ sonlar ayirmasining 10% ini toping.

    A) $0,22$ B) $0,3$ C) $0,021$ D) $0,03$ E) $0,21$

    Yechilishi: $\frac{13}{5} - \frac{1}{2} = \frac{26-5}{10} = \frac{21}{10} = 2,1.$

   $\frac{21}{10} \cdot 0,1 = \frac{21}{100} = 0,21.$ Javobi: E.

3. $19,9 \cdot 18 - 19,9 \cdot 16 + 30,1 \cdot 18 - 30,1 \cdot 16$ ni hisoblang.

    A) 98 B) 100 C) 10 D) 110 E) 102

   Yechilishi: $19,9(18 - 16) + 30,1(18 - 16) =$

   $= 2(19,9 + 30,1) = 100.$ Javobi: B.

4. $2,8x - 3(2x - 1) = 2,8 - 3,19x$ tenglamani yeching.

   A) -20   B) 20   C) -2   D) 200   E) 0,2

   Yechilishi: $2,8x - 3(2x - 1) = 2,8 - 3,19x \Rightarrow$

   $\Rightarrow 3,2x - 3,19x = 3 - 2,8 \Rightarrow 0,01x = 0,2 \Rightarrow$

   $\Rightarrow x = \frac{0,2}{0,01} = 20.$ Javobi: B.

5. $1\frac{1}{6} + 1\frac{5}{6}(1,854 : 1,8 - 1,5 \cdot 2,02)$ ni hisoblang.

A) -4   B) $-2\frac{5}{6}$ C) $-2\frac{1}{2}$ D) 4   E) $2\frac{1}{3}$

Yechilishi: $1\frac{1}{6} + 1\frac{5}{6} \cdot (1,854 : 1,8 - 1,5 \cdot 2,02) =$

$$= \frac{7}{6} + \frac{11}{6} \cdot \left(\frac{1854}{1800} - 3 \cdot 1,01\right) = \frac{7}{6} + \frac{11}{6} \cdot \left(\frac{103}{100} - 3,03\right) =$$

$$= \frac{7}{6} + \frac{11}{6} \cdot \frac{103 - 303}{100} = \frac{7}{6} + \frac{11}{6}\left(-\frac{200}{100}\right) = \frac{7}{6} - \frac{11}{6} \cdot 2 =$$

$$= \frac{7}{6} - \frac{22}{6} = \frac{7-22}{6} = -\frac{15}{6} = -2\frac{1}{2}. \qquad \text{Javobi: C.}$$

6. $-3 < 2 - 5x < 1$ qo'shtengsizlikni yeching.

A) $(-1; 0,2)$ B) $(-1; -0,2)$ C) $(-0,2; 1)$

D) $(0,2; 1)$ E) $(1; 2)$

Yechilishi: $-3 < 2 - 5x < 1 \Rightarrow$

$\Rightarrow -3 - 2 < -5x < 1 - 2 \Rightarrow -5 < -5x < -1 \Rightarrow$

$\Rightarrow \frac{-5}{-5} > \frac{-5x}{-5} > \frac{-1}{-5} \Rightarrow 1 > x > 0,2 \Rightarrow (0,2; 1).$

Javobi: D.

7. $\left(\frac{2}{3} : 3 - 1\right) \cdot 1,5^2 - 0,25$ ni hisoblang.

A) 1,5   B) -2   C) -5   D) -0,2   E) -1,5

Yechilishi: $\left(\frac{2}{3} \cdot \frac{1}{3} - 1\right) \cdot 1,5^2 - 0,25 = \frac{2-9}{9} \cdot 2,25 - 0,25 =$

$$= -\frac{7}{9} \cdot 2,25 - 0,25 = -\frac{15,75}{9} - 0,25 =$$

$$= -1,75 - 0,25 = -2. \qquad \text{Javobi: B.}$$

8. m ning qanday qiymatlarida $|m + 1| = m + 1$ tenglik o'rinli bo'ladi?

A) $m = -1$ B) $m \in R$ C) $m = 0$

D) $m > -1$ E) $m \geq -1$

Yechilishi: $|m + 1| = m + 1;$

1) $m + 1 \geq 0 \Rightarrow m + 1 = m + 1 \; ayniyat;$

2) $m + 1 < 0 \Rightarrow -m - 1 = m + 1 \Rightarrow 2m = -2 \Rightarrow$

$\Rightarrow m = -1;$

Demak, $m \geq -1.$ Javobi: E

Pirnazar DAVRONOV

9. $\dfrac{0,2^2 - 2 \cdot 0,06 + 0,3^2}{0,5 \cdot 0,9 - 0,5}$ ning qiymatini toping.

A) 0,2   B) -2   C) -0,2   D) 0,25   E) -1

Yechilishi: $\dfrac{0,2^2 - 2 \cdot 0,06 + 0,3^2}{0,5 \cdot 0,9 - 0,5} = \dfrac{(0,2 - 0,3)^2}{0,5(0,9 - 1)} = \dfrac{(-0,1)^2}{0,5 \cdot (-0,1)} =$

$= \dfrac{0,01}{-0,05} = -\dfrac{1}{5} - 0,2.$ Javobi: C.

10. $a = 2,(4); b = 2,5 - \dfrac{1}{8}$ va $c = 1,2 : 0,5$ sonlarini kamayish

tartibida joylashtiring.

A) $a > b > c$ B) $a > c > b$ C) $b > a > c$
D) $c > a > b$ E) $c > b > a$

Yechilishi: $a = 2,(4);$

$b = 2,5 - \dfrac{1}{8} = 2,5 - 0,125 = 2,375;$

$c = \dfrac{1,2}{0,5} = \dfrac{12}{5} = 2\dfrac{2}{5} = 2,4;$

$a > c > b.$ Javobi: B.

11. $\dfrac{2n-3}{n+1}$ ifoda n ning nechta natural qiymatida butun son
bo'ladi?

A) 4   B) 3   C) 2   D) 1   E) hech bir qiymatida

Yechilishi: $\dfrac{2n-3}{n+1} = 2 - \dfrac{5}{n+1};$ $n = 4$ da.   Javobi: D.

12. Bir son ikkinchi sondan 6 ga ortiq. Ularning o'rta
arifmetigi 20 ga teng. Shu sonlarning kattasini toping.

A) 23   B) 27   C) 33   D) 26   E) 34

Yechilishi: 1-son-----$x + 6$;   2-son------x;

$\dfrac{x + 6 + x}{2} = 20 \Rightarrow 2x + 6 = 40 \Rightarrow 2x = 34 \Rightarrow x = 17 \Rightarrow$

$x + 6 = 17 + 6 = 23.$ Javobi: A.

13. $\dfrac{5}{6} + 2 \cdot (0,63 : 0,6 - 1,6)$ ni hisoblang.

A) $\dfrac{19}{10}$ B) $-1\dfrac{1}{6}$ C) $-\dfrac{4}{15}$ D) $-1\dfrac{4}{15}$ E) $\dfrac{8}{15}$

Yechilishi: $\dfrac{5}{6} + 2 \cdot \left(\dfrac{0,63}{0,6} - 1,6 \right) = \dfrac{5}{6} + 2 \cdot \left(\dfrac{63}{60} - 1,6 \right) =$

$= \dfrac{5}{6} + 2 \cdot \dfrac{63 - 1,6 \cdot 60}{60} = \dfrac{5}{6} + \dfrac{63 - 96}{30} = \dfrac{5}{6} + \dfrac{-33}{30} =$

$$= \frac{25-33}{30} = -\frac{8}{30} = -\frac{4}{15}.$$ Javobi: C.

14. $a\,(b-c) + b\,(c-a) - c\,(b-a)$ ni soddalashtiring.

A) $-2ac$ B) $2ab$ C) 0 D) 2 E) $2bc - 2ac$

Yechish: $a(b-c) + b(c-a) - c(b-a) =$
$= ab - ac + bc - ab - bc + ac = 0.$ Javobi: C.

15. $y = \sqrt{|x| - 3} + \dfrac{1}{\sqrt{10-x}}$ funksiyaning aniqlanish sohasini toping.

A) $[-3; 10]$ B) $[3;10)$ C) $(3;10) \cup \{-3\}$

D) (-10;3]   E) $(-\infty; -3] \cup [3; 10)$

Yechilishi: $\begin{cases} |x| - 3 \ge 0 \\ 10 - x > 0 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} |x| \ge 3 \\ x < 10 \end{cases} \Rightarrow$

$$\Rightarrow \begin{cases} \begin{cases} x \ge 3 \\ x < 10 \end{cases} \\ \begin{cases} x \le -3 \\ x < 10 \end{cases} \end{cases} \Rightarrow (-\infty; -3] \cup [3; 10).$$ Javobi: E.

16. Rasmda qanday funksiyaning grafigi tasvirlangan?

A) $y = 3x - x^2$ B) $y = 3x^2 - 3$

C) $y = 3(1 - x^2)$ D) $y = 3x + x^2$

E) $y = 3x^2 + 3$

Yechilishi: $y = ax^2 + bx + c;$

1) $(x; y) = (0; 3) \Rightarrow 3 = a \cdot 0^2 + b \cdot 0 + c \Rightarrow c = 3;$

2) $(x; y) = (-1; 0) \Rightarrow ax^2 + bx + 3 = 0 \Rightarrow x = -1 ;$
$\Rightarrow a \cdot (-1)^2 + b \cdot (-1) + 3 = 0 \Rightarrow a - b + 3 = 0;$

3) $(x; y) = (1; 0) \Rightarrow x = 1 \Rightarrow$
$\Rightarrow a \cdot 1^2 + b \cdot 1 + 3 = 0 \Rightarrow a - b + 3 = 0;$

$\begin{cases} a - b + 3 = 0 \\ a + b + 3 = 0 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} 2a + 6 = 0 \\ -2b = 0 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} a = -3; \\ b = 0. \end{cases}$

4) $y = -3x^2 + 0 \cdot x + 3 \Rightarrow y = 3 - 3x^2 \Rightarrow$
$\Rightarrow y = 3(1 - x^2).$ Javobi: C.

17.   Agar $f(x) = 5 + ax^2$ va $q(x) = b - x$ funksiyalar $x = 0$ va $x = 1$ da bir xil qiymatlar qabul qilsa, a va b ning qiymatini toping.

A) $a = -1, b = 5$ B) $a = 1, b = -5$
C) $a = 5, b = -1$ D) $a = -5, b = 1$
E) $a = -1, b = -5$

Yechilishi: $x = 0 \Rightarrow \begin{cases} f(0) = 5 + a \cdot 0^2 = 5 \\ g(0) = b - 0 = b \end{cases} \Rightarrow b = 5;$

$x = 1 \Rightarrow \begin{cases} f(1) = 5 + a \\ g(1) = b - 1 \end{cases} \Rightarrow 5 + a = b - 1 \Rightarrow a = -1;$

Demak, $a = -1; b = 5.$ Javobi: A.

18. $2a^2 b - 3a + 10ab^2 - 15b$ ko'phadni ko'paytuvchilarga ajrating.

A) $(2ab + 3)(a - 5b)$ B) $(a + 5b)(2ab - 3)$
C) $(ab + 3)(2a - 5b)$ D) $(2a^2 + b)(b - 5a)$
E) $(ab + 5)(2a - 3b)$

Yechilishi: $2a^2 b - 3a + 10ab^2 - 15b = a(2ab - 3) + 5b(2ab - 3) = (a + 5b)(2ab - 3).$ Javobi: B.

19. a va b ning qanday qiymatida $\frac{1}{x^2-5x-6} = \frac{a}{x-6} + \frac{b}{x+1}$ tenglik ayniyat bo'ladi?

A) $a = 1, b = 1$ B) $a = \frac{1}{7}, b = -\frac{1}{7}$ C) $a = 1, b = 1$
D) $a = -\frac{1}{7}, b = \frac{1}{7}$ E) $a = -1, b = 7$

Yechilishi: $\frac{1}{x^2-5x-6} = \frac{a}{x-6} + \frac{b}{x+1}$

1) $x^2 - 5x - 6 = 0 \Rightarrow x_{1,2} = \frac{5}{2} \pm \sqrt{\frac{25}{4} + 6} = \frac{5}{2} \pm \frac{7}{2};$

$x_1 = -1; x_2 = 6 \Rightarrow x^2 - 5x - 6 = (x + 1)(x - 6)$

2) $\frac{a}{x-6} + \frac{b}{x+1} = \frac{ax+a+bx-6b}{(x+1)(x-6)}$

3) $ax + a + bx - 6b = 1 \Rightarrow (a + b)x + (a - 6b) = 1 \Rightarrow (a + b)x + (a - 6b) = 0 \cdot x + 1 \Rightarrow$

14

$$\Rightarrow \begin{cases} a+b=0 \\ a-6b=1 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} a=-b \\ 7b=-1 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} a=\frac{1}{7}; \\ b=-\frac{1}{7}; \end{cases}$$ Javobi: B.

20. m ning qanday qiymatlarida $m(mx-1)=9x+3$ tenglama cheksiz ko'p yechimga ega?

A) $m=0$ B) $m=3$ C) $m=-3$

D) $m=-1$ E) $m\in\emptyset$

Yechilishi: $m(mx-1)=9x+3 \Rightarrow m^2x-m=9x+3 \Rightarrow$

$$\Rightarrow \begin{cases} m^2x=9x \\ -m=3 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} m=\pm3 \\ m=-3 \end{cases} \Rightarrow m=-3.$$ Javobi: C.

21. $\left(\dfrac{4a}{4-a^2}-\dfrac{a-2}{4+2a}\right)\cdot\dfrac{4}{a+2}-\dfrac{a}{2-a}$ ni soddalashtiring.

A) -1   B) $\dfrac{2a}{2-a}$ C) $\dfrac{3+a}{2-a}$ D) 1   E) 2

Yechilishi: $\left(\dfrac{4a}{4-a^2}-\dfrac{a-2}{4+2a}\right)\cdot\dfrac{4}{a+2}-\dfrac{a}{2-a}=$

$$=\left(\dfrac{2\cdot 4a}{(2-a)(2+a)}-\dfrac{(2-a)(a-2)}{2(2+a)}\right)\cdot\dfrac{4}{a+2}-\dfrac{a}{2-a}=$$

$$=\dfrac{8a-(a-2)(2-a)}{2(2-a)(2+a)}\cdot\dfrac{4}{a+2}-\dfrac{a}{2-a}=$$

$$=\dfrac{8a+(2-a)(2-a)}{2(2-a)(2+a)}\cdot\dfrac{4}{a+2}-\dfrac{a}{2-a}=\dfrac{a^2+4a+4}{(2-a)(2+a)}\cdot\dfrac{2}{a+2}-\dfrac{a}{2-a}=$$

$$=\dfrac{(a+2)^2}{(2-a)(a+2)}\cdot\dfrac{2}{a+2}-\dfrac{a}{2-a}=\dfrac{2}{2-a}-\dfrac{a}{2-a}=1.$$ Javobi: D.

22. $\begin{cases} \dfrac{y-5}{4}<\dfrac{2y+3}{3} \\ \dfrac{4y+1}{2}<\dfrac{y-4}{3} \end{cases}$ tengsizliklar sistemasi nechta butun yechimga ega?

A) 6   B) 5   C) 4   D) 3   E) 1

Yechilishi: $\begin{cases} \dfrac{y-5}{4}<\dfrac{2y+3}{3} \\ \dfrac{4y+1}{2}<\dfrac{y-4}{3} \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} 3y-15<8y+12 \\ 12y+3<2y-8 \end{cases} \Rightarrow$

$$\begin{cases} -15-12<8y-3y \\ 12y-2y<-8-3 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} -27<5y \\ 10y<-11 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} y>-5,4; \\ y<-1,1; \end{cases}$$

Javobi: C.

23. Agar $\begin{cases} |x| + y = 2 \\ 3x + y = 4 \end{cases}$ bo'lsa, $x+y$ ning qiymatlarini toping.

A) 3   B) 1   C) 2,5   D) 2   E) 1,5

Yechilishi: $\begin{cases} |x| + y = 2 \\ 3x + y = 4 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} \pm x + y = 2 \\ 3x + y = 4 \end{cases};$

a) $\begin{cases} x + y = 2 \\ 3x + y = 4 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} y = 2 - x \\ 3x + 2 - x = 4 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} y = 2 - x \\ 2x = 2 \end{cases} \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases} y = 1; \\ x = 1; \end{cases}$

b) $\begin{cases} -x + y = 2 \\ 3x + y = 4 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} y = 2 + x \\ 3x + 2 + x = 4 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} y = 2 + x \\ 4x = 2 \end{cases} \Rightarrow \Rightarrow$

$\begin{cases} y = 2 + x \\ x = 0,5 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} y = 2,5; \\ x = 0,5; \end{cases}$ chet ildizlar.

$(x, y) = (1; 1) \Rightarrow x + y = 1 + 1 = 2;$

$\Rightarrow (x, y) = (0,5; 2,5) \Rightarrow x + y = 0,5 + 2,5 = 3;$

Javobi: D.

24. Agar $A(1; -2)$ nuqta $y = x^2 + px + q$ parabolaning uchi bo'lsa, p va q ning qiymatini toping.

A) *p=2, q=-1* B) *p=4, q=2* C) *p=q=-2* D) *p=1, q=-2* E) *p=-2, q=-1*

Yechilishi: $y = x^2 + px + q;$ $A(1; -2)$

$y' = 2x + p \Rightarrow y' = 0 \Rightarrow 2x + p = 0 \Rightarrow x = -\frac{p}{2},$

$A(1; -2) \Rightarrow \begin{cases} x = 1; \\ y = -2; \end{cases}$

$1 = -\frac{p}{2} \Rightarrow 2 = -p \Rightarrow p = -2;$

$y = x^2 + px + q \Rightarrow -2 = 1^2 + (-2) \cdot 1 + q \Rightarrow$

$\Rightarrow q = -2 - 1 + 2 \Rightarrow q = -1.$ Javobi: E.

25. a ning qanday qiymatlarida $\begin{cases} 3|x| + y = 2 \\ |x| + 2y = a \end{cases}$ sistema yagona yechimga ega?

16

A) $a=0$ B) $a>0$ C) $a=2$ D) $a=-2$ E) $a=4$

Yechilishi: $\begin{cases} 3|x| + y = 2 \\ |x| + 2y = a \end{cases}$

1-usul. $x = 0 \Rightarrow \begin{cases} y = 2 \\ 2y = a \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} y = 2; \\ a = 4; \end{cases}$

2-usul. 1) $x > 0 \Rightarrow \begin{cases} 3x + y = 2 \\ x + 2y = a \end{cases} \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases} y = 2 - 3x \\ x + 2(2 - 3x) = a \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} y = 2 - 3x \\ x + 4 - 6x = a \end{cases} \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases} y = 2 - 3x \\ 5x = 4 - a \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} y = 2 - 3 \cdot \frac{4-a}{5} \\ x = \frac{4-a}{5} \end{cases} \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases} x = \frac{4-a}{5} \\ y = \frac{10-12+3a}{5} \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x = \frac{4-a}{5}; \\ y = \frac{3a-2}{5}; \end{cases}$

2) $x < 0 \Rightarrow \begin{cases} -3x + y = 2 \\ -x + 2y = a \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} y = 2 + 3x \\ x = 2y - a \end{cases} \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases} y = 2 + 3x \\ x = 2(2 + 3x) - a \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} y = 2 + 3x \\ x = 4 + 6x - a \end{cases} \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases} y = 2 + 3x \\ 5x = a - 4 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} y = 2 + 3 \cdot \frac{a-4}{5} \\ x = \frac{a-4}{5} \end{cases} \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases} x = \frac{a-4}{5} \\ x = \frac{10+3a-12}{5} \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x = \frac{a-4}{5} \\ y = \frac{3a-2}{5} \end{cases} \Rightarrow$

$\Rightarrow \frac{4-a}{5} = \frac{a-4}{5} \Rightarrow 4 - a = a - 4 \Rightarrow 2a = 8 \Rightarrow a = 4.$

Javobi: E.

26. Geometrik progressiyaning maxraji -2 ga, dastlabki beshta hadining yig'indisi 5,5 ga teng. Progressiyaning beshinchi hadini toping.

    A) 4   B) -8   C) 8   D) -16   E) 16

Yechilishi: $q = -2$; $S_5 = 5,5$; $a_5 = ?$

$$5,5 = \frac{a_1[(-2)^5 - 1]}{-2 - 1} \Rightarrow 5,5 = \frac{a_1(-32 - 1)}{-3} \Rightarrow -16,5 =$$

$$= a_1(-33) \Rightarrow a_1 = \frac{-16,5}{-33} = \frac{165}{330} = \frac{1}{2} \Rightarrow a_1 = \frac{1}{2} \Rightarrow a_5 = \frac{1}{2} \cdot$$

$$(-2)^4 = \frac{1}{2} \cdot 16 = 8. \qquad \text{Javobi: C.}$$

27. Arifmetik progressiyaning dastlabki 16 ta hadlari yig'indisi 840 ga, oxirgi hadi $a_{16} = 105$ ga teng. Shu progressiyaning ayirmasini toping.

A) 9   B) 7   C) 15   D) 5   E) 11

Yechish: 1) $a_{16} = a_1 + 15d \Rightarrow 105 = a_1 + 15d \Rightarrow$

$\Rightarrow a_1 = 105 - 15d$;

2) $840 = \frac{105 - 15d + 105}{2} \cdot 16 \Rightarrow 840 = (210 - 15d) \cdot 8 \Rightarrow$

$\Rightarrow 210 - 15d = 105 \Rightarrow 15d = 105 \Rightarrow 3d = 21 \Rightarrow$

$\Rightarrow d = 7.$

Javobi: B

28. Agar $f(x) = e^x + 5x$ bo'lsa, $f'(ln3)$ ni hisoblang.

A) 8   B) 5   C) $e^3 + 5$ D) e^3 E) 9

Yechish: $f(x) = e^x + 5x$; $f'(ln3) = ?$

$f'(x) = e^x + 5$; $f'(ln3) = e^{ln3} + 5 = 3 + 5 = 8.$

Javobi: A.

29. $f(x) = x^3 + 2,5x^2 - 2x$ funksiyaning maksimum nuqtasidagi qiymatini hisoblang.

A) -8   B) 6   C) 10,5   D) -12   E) 14

Yechilishi: $f(x) = x^3 + 2,5x^2 - 2x \Rightarrow$

$\Rightarrow f'(x) = 3x^2 + 5x - 2 \Rightarrow f'(x) = 0 \Rightarrow$

$\Rightarrow 3x^2 + 5x - 2 = 0 \Rightarrow D = 25 + 24 = 49 \Rightarrow$

$\Rightarrow x_1 = \frac{-5 - 7}{6} = -2, \; x_2 = \frac{-5 + 7}{6} = \frac{1}{3} \Rightarrow$

$\Rightarrow f(-2) = (-2)^3 + 2,5 \cdot (-2)^2 - 2 \cdot (-2) =$

$= -8 + 10 + 4 = 6. \qquad \text{Javobi: B.}$

30. $y = 0,5\cos x$ funksiyaning $[-\frac{\pi}{4}, \frac{3\pi}{4}]$ kesmadagi eng kichik qiymatini toping.

   A) $-\frac{1}{2}$ B) -1   C) 0   D) $-\frac{\sqrt{2}}{8}$ E) $-\frac{\sqrt{2}}{4}$

   Yechilishi: $y' = -\frac{1}{2}\sin x \Rightarrow -\frac{1}{2}\sin x = 0 \Rightarrow$
   $\Rightarrow \sin x = 0 \Rightarrow x = \pi n, \ n \in Z.$
   $n = -1 \Rightarrow x = -\pi \notin [-\frac{\pi}{4}; \frac{3\pi}{4}];$
   $n = 0 \Rightarrow x = 0 \in [-\frac{\pi}{4}; \frac{3\pi}{4}];$
   $n = 1 \Rightarrow x = \pi \notin [-\frac{\pi}{4}; \frac{3\pi}{4}];$
   $y(0) = 0,5\cos 0 = \frac{1}{2} \cdot 1 = \frac{1}{2};$
   $y\left(-\frac{\pi}{4}\right) = 0,5\cos\left(-\frac{\pi}{4}\right) = \frac{1}{2} \cdot \frac{\sqrt{2}}{2} = \frac{\sqrt{2}}{4};$
   $y\left(\frac{3\pi}{4}\right) = \frac{1}{2}\cos\frac{3\pi}{4} = \frac{1}{2}\cos\left(\frac{\pi}{2} + \frac{\pi}{4}\right) =$
   $= -\frac{1}{2}\sin\frac{\pi}{4} = -\frac{1}{2} \cdot \frac{\sqrt{2}}{2} = -\frac{\sqrt{2}}{4}.$ Javobi: E.

31. $y = e^{1-3x}$ funksiyaning boshlang'ich funksiyasini toping.

   A) $-3e^x + C$ B) $e^{1-3x} + C$ C) $-3e^{1-3x} + C$
   D) $-\frac{1}{3}e^{1-3x} + C$ E) $-\frac{1}{3}e^x + C$

   Yechilishi: $y = e^{1-3x}$; $\int a^x dx = a^x \ln a + C.$
   $F(x) = \int e^{1-3x} dx = -\frac{1}{3}e^{1-3x} + C.$ Javobi: D.

32. $\int_0^{2\pi} |\sin x| dx$ ni hisoblang.

   A) 2   B) 4   C) 0   D) 1   E) 3

   Yechilishi: $\int_0^{2\pi} |\sin x| dx = \int_0^{\pi} \sin x \, dx - \int_{\pi}^{2\pi} \sin x \, dx =$
   $= -\cos x \big|_0^{\pi} + \cos x \big|_0^{2\pi} =$
   $= -[\cos\pi - \cos 0] + \cos 2\pi - \cos\pi =$
   $= -(-1 - 1) + 1 - (-1) = -(-2) + 1 + 1 = 4.$

Javobi: B.

33. $\dfrac{log_2^2 14 + log_2 14 \cdot log_2 7 - 2log_2^2 7}{log_2 14 + 2log_2 7}$ ni soddalashtiring.

A) 2   B) $log_2 7$ C) $-log_2 7$ D) 1   E) -2,5

Yechilishi:

$\dfrac{log_2^2 14 + log_2 14 \cdot log_2 7 - 2log_2^2 7}{log_2 14 + 2log_2 7} =$

$= \dfrac{log_2^2 14 + log_2 14 \cdot log_2 \frac{14}{2} - 2log_2^2 \frac{14}{2}}{log_2 14 + 2log_2 7} =$

$= \dfrac{log_2^2 14 + log_2 14 \, (log_2 14 - log_2 2) - 2 \, (log_2 14 - log_2 2)^2}{log_2 14 + 2(log_2 14 - 1)} =$

$= \dfrac{log_2^2 14 + log_2 14 \, (log_2 14 - 1) - 2 \, (log_2 14 - 1)^2}{log_2 14 + 2(log_2 14 - 1)} =$

$= \dfrac{2log_2^2 14 - log_2 14 - 2log_2^2 14 + 4log_2 14 - 2}{3log_2 14 - 2} = \dfrac{3log_2 14 - 2}{3log_2 14 - 2} = 1.$

Javobi: D.

34. $6^{x-2} - \left(\dfrac{1}{6}\right)^{3-x} + 36^{\frac{x-1}{2}} = 246$ tenglamani yeching.

A) 3   B) 5   C) 2   D) 6   E) 4

Yechilishi: $6^{x-2} - \left(\dfrac{1}{6}\right)^{3-x} + 36^{\frac{x-1}{2}} = 246 \Rightarrow$

$\Rightarrow 6^{x-2} - 6^{x-3} + 6^{x-1} = 246 \Rightarrow$

$\Rightarrow 6^{-2} \cdot 6^x - 6^{-3} \cdot 6^x + 6^{-1} \cdot 6^x = 246 \Rightarrow$

$\Rightarrow 6^x \left(\dfrac{1}{36} - \dfrac{1}{216} + \dfrac{1}{6}\right) = 246 \Rightarrow$

$\Rightarrow 6^x \cdot \dfrac{6-1+36}{216} = 246 \Rightarrow 41 \cdot 6^x = 246 \cdot 216 \Rightarrow$

$\Rightarrow 6^x = 6^4 \Rightarrow x = 4.$ Javobi: E.

35. $\sqrt[3]{2\sqrt{6} - 5} \cdot \sqrt[6]{49 + 20\sqrt{6}}$ ni hisoblang.

A) 1   B) -1   C) $4\sqrt{6}$ D) 2   E) $-2\sqrt{6}$

Yechilishi: $\sqrt[3]{2\sqrt{6} - 5} = \sqrt[6]{\left(2\sqrt{6} - 5\right)^2} = \sqrt[6]{49 - 20\sqrt{6}};$

U holda $\sqrt[3]{2\sqrt{5} - 5} \cdot \sqrt[6]{49 + 20\sqrt{6}} =$

$= \sqrt[6]{49 - 20\sqrt{6}} \cdot \sqrt[6]{49 + 20\sqrt{6}} =$

$$\sqrt[6]{(49 - 20\sqrt{6}) \cdot (49 + 20\sqrt{6})} = \sqrt[6]{49^2 - (20\sqrt{6})^2} =$$
$$= \sqrt[6]{2401 - 2400} = 1. \qquad \text{Javobi: A.}$$

36. Teng yonli uchburchakning asosi 16 ga, balandligi 4 ga teng. Shu uchburchakka tashqi chizilgan aylananing radiusini toping.

A) $2\sqrt{5}$ B) 5   C)10   D)6.5   E) $4\sqrt{5}$

Yechilishi: AB=16, CD=4 $\Rightarrow$

$$\Rightarrow S = \frac{1}{2} \cdot AB \cdot CD = 32.$$
$$R = \frac{a \cdot b \cdot c}{4 \cdot S}, \quad r = \frac{2S}{a+b+c};$$
$$CB^2 = CD^2 + DB^2 =$$
$$= CD^2 + \left(\frac{AB}{2}\right)^2 =$$
$$= 4^2 + \left(\frac{16}{2}\right)^2 = 16 + 64 = 80 \Rightarrow$$
$$CB = \sqrt{80};$$
$$R = \frac{16 \cdot \sqrt{80} \cdot \sqrt{80}}{4 \cdot 32} = \frac{16 \cdot 80}{4 \cdot 32} = 10. \qquad \text{Javobi: C.}$$

37. Teng yonli trapetsiyaning dioganali uning o'tkir burchagini teng ikkiga bo'ladi. Agar trapetsiyaning perimetri 48 ga, katta asosi 18 ga teng bo'lsa, uning o'rta chizig'ini toping.

A) 14   B) 15   C) 16
D) 12   E) 13

Yechilishi: P=48; AB=18;
∠DAC=∠BAC, MN=?
AB ∥ CD $\Rightarrow$ ∠CAB =
∠ACD $\Rightarrow$ AD = CD;
2AD + CD + AB = 48 $\Rightarrow$
$\Rightarrow$ 2AD + AD + 18 = 48 $\Rightarrow$
$\Rightarrow$ 3AD = 30 $\Rightarrow$ AD = 10 $\Rightarrow$
$\Rightarrow$ CD = 10 $\Rightarrow$ MN =

21

$$= \frac{AB+CD}{2} = \frac{18+10}{2} = 14.$$

Javobi: A.

38. To'g'ri burchakli uchburchakning gipotinuzasi 25 ga, katetlaridan biri 10 ga teng. Ikkinchi katetning gipotenuzadagi proyeksiyasini toping.

A) 14   B)15,5   C) 18

D) 20,4   E) 21

Yechilishi: $CA^2 = 25^2 - 10^2 = 525,$

$$CA = \sqrt{525}; \quad h = \frac{ab}{c};$$

$$h = \frac{\sqrt{525} \cdot 10}{25} = 2 \cdot \sqrt{\frac{525}{25}} = 2 \cdot \sqrt{21};$$

$$CD^2 = AC^2 - AD^2 = \left(\sqrt{525}\right)^2 - \left(2\sqrt{21}\right)^2 =$$

$$= 525 - 84 = 441 \Rightarrow CD = 21. \qquad \text{Javobi: E.}$$

39. Ikkita parallel to'g'ri chiziqni uchinchi to'g'ri chiziq kesib o'tganda, hosil bo'lgan ichki bir tomonli burchaklardan biri ikkinchisidan $60°$ kichik. Shu burchaklardan kattasini toping.

A) $120°$ B) $110°$ C) $118°$ D) $130°$ E) $100°$

Yechish: $x + (x - 60°) = 180° \Rightarrow$

$\Rightarrow 2x = 240° \Rightarrow x = 120°.$

Javobi: A.

40. Teng yonli uchburchakning perimetri 14 ga teng. Asosi yon tomonidan 3 marta kichik. Uchburchakning yuzini toping.

A) $4\sqrt{2}$ B) $8\sqrt{2}$ C) $\sqrt{35}$ D) 12   E) $2\sqrt{35}$

Yechish: $P = 14; \quad AB = \frac{1}{3}BC;$

$P = 2BC + AB \Rightarrow$

$\Rightarrow 14 = 2BC + \frac{1}{3}BC \Rightarrow$

$\Rightarrow 42 = 6BC + BC \Rightarrow 7BC = 42 \Rightarrow$

22

$$\Rightarrow BC = 6 \Rightarrow AB = 2;$$

$$CD^2 = BC^2 - DB^2 = 36 - \left(\frac{AB}{2}\right)^2 = 36 - \left(\frac{2}{2}\right)^2 = 35;$$

$$CD = \sqrt{35}; \quad S = \frac{1}{2} \cdot 2 \cdot \sqrt{35} = \sqrt{35};$$

Javobi: C.

41. Doiraning radiusi r ga teng. $90°$ li yoyga mos keladigan segmentning yuzini toping.

A) $\frac{\pi r^2}{8}$ B) $\frac{r^2}{2}(\pi - 2)$ C) $\frac{\pi r^2}{4}$

D) $\frac{r^2}{8}(\pi - 2)$ E) $\frac{r^2}{4}(\pi - 2)$

Yechilishi: $\angle AOB = 90°;$

$$S_{sektor} = \frac{\pi r^2 n°}{360°} = \frac{\pi r^2 90°}{360°} = \frac{\pi r^2}{4};$$

$$S_\Delta = \frac{1}{2}rr = \frac{1}{2}r^2;$$

$$S_{segment} = \frac{\pi r^2}{4} - \frac{1}{2}r^2 = \frac{\pi r^2 - 2r^2}{4} = \frac{r^2}{4}(\pi - 2). \quad \text{Javobi: E.}$$

42. Uchburchakning asosi 22 ga, yon tomonlari 13 va 19 ga teng. Asosiga tushirilgan medianasini toping.

A) 18   B) 12   C) 16   D) 13   E) 14

Yechilishi: $m_a = \frac{1}{2}\sqrt{2b^2 + 2c^2 - a^2};$

$$m_{22} = \frac{1}{2}\sqrt{2(13^2 + 19^2) - 22^2} =$$

$$= \frac{1}{2}\sqrt{2(169 + 361) - 484} =$$

$$= \frac{1}{2}\sqrt{1060 - 484} = \frac{1}{2} \cdot 24 = 12.$$

Javobi: B.

43. Radiusi 5 ga teng bo'lgan aylana yoyining uzunligi radiusi 2 ga teng aylana uzunligiga teng bo'lsa, hosil bo'lgan markaziy burchakni toping.

A) $120°$ B) $150°$ C) $144°$

D) $135°$ E) $148°$

Yechilishi: $C = 2\pi R = 2\pi \cdot 2 = 4\pi$;

$l = C \Rightarrow \quad l = 4\pi$;

$l = \dfrac{\pi R n^{\circ}}{180^{\circ}} \Rightarrow \quad 4\pi = \dfrac{\pi \cdot 5 \cdot n^{\circ}}{180^{\circ}} \Rightarrow$

$\Rightarrow 5\pi n^{\circ} = 4 \cdot 180 \cdot \pi \Rightarrow$

$\Rightarrow n^{\circ} = \dfrac{4 \cdot 180}{5} = 144^{\circ}$. Javobi: C.

44. To'g'ri to'rtburchakning yuzi 400 ga, tomonlarining nisbati 4:1 ga teng. To'rtburchakning perimetrini hisoblang.

A) 100   B) $100\sqrt{2}$ C) 200   D) $50\sqrt{2}$ E) 120

Yechilishi: $S = 400$,

$4x : x = 4 : 1$;

$S = x \cdot 4x = 4x^2 \Rightarrow$

$\Rightarrow 4x^2 = 400 \Rightarrow x^2 = 100 \Rightarrow x = 10$;

$P = 2(4x + x) = 10x = 10 \cdot 10 = 100$.   Javobi: A.

45. To'g'ri burchakli uchburchakning burchaklaridan biri 60° ga teng. Bu uchburchakka romb shunday ichki chizilganki, 60° li burchak umumiy, rombning qolgan uchlari uchburchakning tomonlarida yotadi. Agar rombning tomoni $\dfrac{\sqrt{12}}{5}$ ga teng bo'lsa, berilgan uchburchakning katta katetini toping.

A) 1,8   B) 2,4   C) $\dfrac{3\sqrt{3}}{5}$ D) $\dfrac{6\sqrt{3}}{5}$ E) 2,2

Yechilishi: $CM = CN = MD = ND = \dfrac{\sqrt{12}}{5}$, $AB = ?$

$\angle MCN = \angle CNM =$
$= \angle CMN = 60^{\circ}$;
$\angle DMN = \angle MND =$
$= \angle MDN = 60^{\circ}$;
$\angle CMD = 120^{\circ} \Rightarrow$
$\Rightarrow \angle AMD = 60^{\circ} \Rightarrow$

24

$\angle ADM = 30^{°} \Rightarrow$

$\Rightarrow AM = \frac{1}{2}MD = \frac{1}{2} \cdot \frac{\sqrt{12}}{5} = \frac{\sqrt{12}}{10};$

$\frac{AD}{MD} = \cos 30^{°} \Rightarrow AD = \frac{\sqrt{3}}{2}MD = \frac{\sqrt{3}}{2} \cdot \frac{\sqrt{12}}{5} = \frac{3}{5};$

$\begin{cases} \angle ADM = 30^{°} \\ \angle MDN = 60^{°} \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} \angle NDB = 90^{°} \\ \angle DNB = 60^{°} \\ \angle DBN = 30^{°} \end{cases} \Rightarrow \frac{BD}{ND} = ctg\,30^{°} \Rightarrow$

$\Rightarrow BD = \frac{\sqrt{12}}{5} \cdot \sqrt{3} = \frac{\sqrt{36}}{5} = \frac{6}{5};$

$AB = AD + DB = \frac{3}{5} + \frac{6}{5} = \frac{9}{5} = 1{,}8.$ Javobi: A.

46. $\vec{a}$ va $\vec{b}$ vektorlar $45^{°}$ li burchak tashkil qiladi va $\vec{a} \cdot \vec{b} = 4.$ Shu vektorlarga qurilgan uchburchakning yuzini hisoblang.

A) 4   B) $2\sqrt{2}$ C) $4\sqrt{2}$ D) 2   E) 8

Yechilishi: $(\vec{a} {}^{\wedge} \vec{b}) = 45^{°};$ $\vec{a} \cdot \vec{b} = 4;$

$\vec{a} \cdot \vec{b} = |\vec{a}| \cdot |\vec{b}| \cdot \cos 45^{°} \Rightarrow 4 = |\vec{a}| \cdot |\vec{b}| \cdot \frac{\sqrt{2}}{2} \Rightarrow$

$\Rightarrow |\vec{a}| \cdot |\vec{b}| = \frac{8}{\sqrt{2}} = 4\sqrt{2}, \Rightarrow |\vec{a}| \cdot |\vec{b}| = 4\sqrt{2};$

$S_{To'rtburchak} = \left|[\vec{a} \cdot \vec{b}]\right| = |\vec{a}| \cdot |\vec{b}| \cdot \sin 45^{°} = 4\sqrt{2} \cdot \frac{\sqrt{2}}{2} = 4.$

$S_{\Delta} = \frac{1}{2}\left|[\vec{a} \cdot \vec{b}]\right| = \frac{1}{2} \cdot 4 = 2.$ Javobi: D.

47. Agar $\vec{a} = 2\vec{i} + 3\vec{j}$ va $\vec{b} = 2\vec{j}$ bo'lsa, $\vec{p} = 2\vec{a} - 3\vec{b}$ vektorning koordinatalarini ko'rsating.

A) (-4;12)   B) (-4;0)   C) (4;0)   D) (2;-6)   E) (-2;4)

Yechilishi: $\vec{a} = 2\vec{i} + 3\vec{j};$ $\vec{b} = 2\vec{j};$ $\vec{p} = 2\vec{a} - 3\vec{b};$

$\vec{a} = \{2; 3\};$ $\vec{b} = \{0; 2\};$

$\vec{p} = 2 \cdot \{2; 3\} - 3 \cdot \{0; 2\} = \{4; 6\} - \{0; 6\} =$

$= \{4 - 0; 6 - 6\} = \{4; 0\}.$

Javobi: C.

48. Tashqi burchagi $36°$ ga teng bo'lgan muntazam ko'pburchakning nechta tomoni bor?

A) 8   B)10   C) 12   D) 15   E) 18

Yechilishi: $\angle ABC = 36°$,

$\angle ABD = 144°$;

$144\,n = 180\,(n-2) \Rightarrow n = 10$;

Shunga o'xshash, qavariq ko'pburchak tashqi burchaklari yig'indisining $360°$ ga tengligi e'tiborga olinsa

$n = 360°:36° = 10.$ Javobi: B.

49. z ning qanday qiymatlarida $\vec{c} = 2\vec{i} - 9\vec{j} + z\vec{k}$ vektorning uzunligi 11 ga teng bo'ladi?

A) $z = 6$ B) $z = \pm6$ C) $z = 4$ D) $z = \pm5$ E) $z = 7$

Yechilishi: $\vec{c} = \{2; -9; z\}$; $|\vec{c}| = 11$;

$11 = \sqrt{2^2 + (-9)^2 + z^2} \Rightarrow 121 = 85 + z^2 \Rightarrow$

$\Rightarrow z_{1,2} = \pm6.$ Javobi: B.

50. Tekislikdan a masofada joylashgan nuqtadan tekislikka ikkita og'ma tushirildi. Og'malarning har biri bilan tekisliklar orasidagi burchak $45°$ ga teng. Agar og'malar orasidagi burchak $60°$ ga teng bo'lsa, og'malarning uchlaridagi masofa qancha?

A) $2a$ B) $a\sqrt{3}$ C) $a\sqrt{2}$

D) $1,5a$ E) $2a\sqrt{2}$

Yechilishi: $\frac{CD}{AD} = \sin 45° \Rightarrow$

$\Rightarrow AD = a\sqrt{2}$;

$\frac{AE}{AD} = \sin 30° \Rightarrow$

$\Rightarrow AE = \frac{1}{2} \cdot a\sqrt{2}$;

$AB = 2AE = a\sqrt{2}.$ Javobi: C.

51. To'g'ri prizmaning balandligi 50 ga, asosining tomonlari 13; 37 va 40 ga teng. Prizmaning to'la sirtini toping.

A) 2730   B) 3900   C) 4500   D) 4740   E)4980

Yechilishi: $S_T = S_{yon} + 2 \cdot S_{asos}$;

$p = \frac{40+13+37}{2} = 45$;

$S_{asos} = \sqrt{45\,(45-40)(45-37)(45-13)} =$

$= \sqrt{9 \cdot 5 \cdot 5 \cdot 4 \cdot 2 \cdot 32} =$

$= 3 \cdot 5 \cdot 2 \cdot 8 = 240$;

$S_{yon} = P_{asos} \cdot H =$

$= 50\,(40 + 37 + 13) =$

$= 50 \cdot 90 = 4500$;

$S_T = 4500 + 2 \cdot 240 = 4980$.

   Javobi: E.

52. Silindirning balandligi H ga teng. Uning yon sirti yoyilganda yasovchisi dioganali bilan $60°$ li burchak tashkil qiladi. Silindirning hajmini toping.

A) $\frac{3H^3}{4\pi}$ B) $6\pi H^3$ C) $\frac{3H^3}{2\pi}$ D) $\frac{4}{3}\pi H^3$ E) $\frac{9H^3}{4\pi}$

Yechilishi: $\frac{2\pi R}{H} = tg\,60° \Rightarrow R = \frac{\sqrt{3}H}{2\pi}$;

$V = \pi R^2 H = \pi \left(\frac{\sqrt{3}H}{2\pi}\right)^2 H =$

$\pi \cdot \frac{3H^2}{4\pi^2} H = \frac{3H^3}{4\pi}$;   Javobi: A.

53. Konusning o'q kesimi teng tomonli uchburchakdan, silindirniki esa kvadratdan iborat. Agar ularning to'la sirtlari tengdosh bo'lsa, hajmlarining nisbatini toping.

A) 2:3   B) 1:3   C) 1:$\sqrt{2}$ D) $\sqrt{2}$:$\sqrt{3}$ E) $2\sqrt{2}$:$\sqrt{3}$

Yechilishi: $S_{T.k} = S_{yon} + S_{asos} =$

$= \pi r l + \pi r^2 = \pi r \cdot 2r + \pi r^2 = 3\pi r^2$;

$S_{T.s} = 2\pi R H + 2S_{asos} =$

$= 2\pi R \cdot 2R + 2\pi R^2 = 6\pi R^2$;

$S_{T.k} = S_{T.s} \Rightarrow 3\pi r^2 = 6\pi R^2 \Rightarrow$

$$\Rightarrow r^2 = 2R^2 \Rightarrow r = R\sqrt{2};$$

$$h^2 = 4r^2 - r^2 = 3r^2 \Rightarrow h = r\sqrt{3} \Rightarrow h = R\sqrt{6};$$

$$V_k = \frac{1}{3}\pi r^2 h = \frac{1}{3}\pi \cdot 2R^2 \cdot R\sqrt{6} = \frac{2\pi R^3}{3}\sqrt{6};$$

$$V_s = \pi R^2 H = \pi R^2 \cdot 2R = 2\pi R^3;$$

$$V_k : V_s = \frac{2\pi R^3 \sqrt{6}}{3} : 2\pi R^3 = \frac{2\sqrt{6}\pi R^3}{6\pi R^3} =$$

$$= \frac{\sqrt{6}}{3} = \sqrt{\frac{2}{3}} = \frac{\sqrt{2}}{\sqrt{3}}. \qquad \text{Javobi: D.}$$

54. Agar $tg\,\alpha = -\frac{1}{4}$ bo'lsa, $\frac{2\cos^2\alpha - \sin 2\alpha}{2\sin^2\alpha - \sin 2\alpha}$ ni hisoblang.

  A) -4   B) 4   C) $\frac{1}{4}$ D) $-\frac{1}{2}$ E) 2

  Yechilishi: $tg\,\alpha = -\frac{1}{4};\quad ctg\,\alpha = \frac{1}{tg\,\alpha}$

$$\frac{2\cos^2\alpha - \sin 2\alpha}{2\sin^2\alpha - \sin 2\alpha} = \frac{2\cos^2\alpha - 2\sin\alpha\cos\alpha}{2\sin^2\alpha - 2\sin\alpha\cos\alpha} = \frac{2\cos\alpha(\cos\alpha - \sin\alpha)}{2\sin\alpha(\sin\alpha - \cos\alpha)} =$$

$$= -\frac{\cos\alpha(\sin\alpha - \cos\alpha)}{\sin\alpha(\sin\alpha - \cos\alpha)} = -ctg\,\alpha = -\frac{1}{-\frac{1}{4}} = 4. \qquad \text{Javobi: B.}$$

55. $\frac{3\sin^2\alpha + \cos^4\alpha}{1 + \sin^2\alpha + \sin^4\alpha}$ ni soddalashtiring.

  A) $2\sin\alpha$ B) 2   C) $ctg^2\alpha$ D) 1   E) 3

  Yechilishi: $\frac{3\sin^2\alpha + \cos^4\alpha}{1 + \sin^2\alpha + \sin^4\alpha} = \frac{3\sin^2\alpha + (1 - \sin^2\alpha)^2}{1 + \sin^2\alpha + \sin^4\alpha} =$

$$\frac{3\sin^2\alpha + 1 - 2\sin^2\alpha + \sin^4\alpha}{1 + \sin^2\alpha + \sin^4\alpha} = \frac{1 + \sin^2\alpha + \sin^4\alpha}{1 + \sin^2\alpha + \sin^4\alpha} = 1. \quad \text{Javobi: D.}$$

56. $\frac{\sin 2x}{tg\,x - 1} = 0$ tenglamani yeching.

  A) $\frac{\pi k}{2}, k \in Z$ B) $\frac{\pi}{2} + \pi k, k \in Z$ C) $2\pi k, k \in Z$

  D) $\pi + 2\pi k, k \in Z$ E) $\pi k, k \in Z$

  Yechilishi: $\frac{\sin 2x}{tg\,x - 1} = 0 \Rightarrow \begin{cases} \sin 2x = 0 \\ tg\,x - 1 \neq 0 \end{cases} \Rightarrow$

$$\Rightarrow \begin{cases} \sin 2x = 0 \\ tg\,x \neq 1 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} 2\sin x \cdot \cos x = 0 \\ \cos x \neq 0 \end{cases} \Rightarrow x \neq \frac{\pi}{4} + \pi n \Rightarrow$$

$$\Rightarrow \sin x = 0 \Rightarrow x = \pi n, n \in Z.$$

  Javobi: E.

57. $8sin^2 \frac{15\pi}{16} \cdot cos^2 \frac{17\pi}{16} - 1$ ni hisoblang.

A) $-\frac{\sqrt{2}}{2}$ B) $\frac{\sqrt{2}}{2}$ C) $-\frac{1}{2}$ D) $\frac{1}{2}$ E) $\sqrt{2}$

Yechilishi: $8sin^2 \frac{15\pi}{16} \cdot cos^2 \frac{17\pi}{16} - 1 =$

$= 8\left[sin\frac{15\pi}{16} \cdot cos\frac{17\pi}{16}\right]^2 - 1 =$

$= 8\left[sin\left(\pi - \frac{\pi}{16}\right) \cdot cos\left(\pi + \frac{\pi}{16}\right)\right] =$

$= 8\left[sin\frac{\pi}{16}\left(-cos\frac{\pi}{16}\right)\right]^2 - 1 = 8\left[-sin\frac{\pi}{16}cos\frac{\pi}{16}\right]^2 - 1 =$

$= 8\left[-\frac{sin\left(\frac{\pi}{16}-\frac{\pi}{16}\right)+sin\left(\frac{\pi}{16}+\frac{\pi}{16}\right)}{2}\right]^2 - 1 = 8\left[-\frac{1}{2}sin\frac{\pi}{8}\right]^2 - 1 =$

$= 8 \cdot \frac{1}{4}sin^2\frac{\pi}{8} - 1 =$

$= 2sin^2\frac{\pi}{8} - 1 = 2 \cdot \frac{1}{2}\left[1 - cos\frac{\pi}{4}\right] - 1 =$

$= 1 - \frac{\sqrt{2}}{2} - 1 = -\frac{\sqrt{2}}{2}.$ Javobi: A.

58. $\frac{sin2\alpha+2sin\alpha \cdot cos2\alpha}{1+cos\alpha+cos2\alpha+cos3\alpha}$ ni soddalashtiring.

A) $2tg\alpha$ B) $2sin\alpha$ C) $4tg\alpha$ D) $ctg\alpha$ E) $tg\alpha$

Yechilishi: $\frac{sin2\alpha+2sin\alpha cos2\alpha}{1+cos\alpha+cos2\alpha+cos3\alpha}$;

$\frac{2sin\alpha cos\alpha+2sin\alpha cos2\alpha}{sin^2\alpha+cos^2\alpha+cos^2\alpha-sin^2\alpha+cos\alpha+cos3\alpha} =$

$= \frac{2sin\alpha(cos\alpha+cos2\alpha)}{2cos^2\alpha+2cos\frac{\alpha+3\alpha}{2}cos\frac{\alpha-3\alpha}{2}} = \frac{2sin\alpha(cos\alpha+cos2\alpha)}{2cos^2\alpha+2cos\alpha cos2\alpha} =$

$= \frac{2sin\alpha(cos\alpha+cos2\alpha)}{2cos\alpha(cos\alpha+cos2\alpha)} = tg\alpha.$

Javobi: E.

59. $cos x \cdot cos 4x - cos 5x = 0$ tenglama $[0; \pi]$ kesmada nechta ildizga ega?

A) 1 B) 2 C) 4 D) 3 E) 5

Yechilishi: $cos x \cdot cos 4x - cos 5x = 0$;

$\frac{1}{2}[cos(4x - x) + cos(4x + x)] - cos5x = 0 \Rightarrow$

$$\Rightarrow \frac{1}{2}\cos 3x + \frac{1}{2}\cos 5x - \cos 5x = 0 \Rightarrow$$

$$\Rightarrow \frac{1}{2}\cos 3x - \frac{1}{2}\cos 5x = 0 \Rightarrow$$

$$\Rightarrow \frac{1}{2}\left[-2\sin\frac{3x-5x}{2}\sin\frac{3x+5x}{2}\right] = 0 \Rightarrow$$

$$-\sin(-x)\sin 4x = 0 \Rightarrow \sin x \sin 4x = 0 \Rightarrow$$

$$\Rightarrow \begin{cases} \sin x = 0 \\ \sin 4x = 0 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x = \pi n \\ 4x = \pi n \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x = \pi n; \\ x = \frac{\pi n}{4}; \end{cases}$$

$$n = 0 \Rightarrow \begin{cases} x = 0, o'rinli; \\ x = 0, chet\ ildiz; \end{cases} \quad n = 1 \Rightarrow \begin{cases} x = \pi, o'rinli; \\ x = \frac{\pi}{4}, o'rinli; \end{cases}$$

$$n = 2 \Rightarrow \begin{cases} x = 2\pi, chet\ ildiz; \\ x = \frac{\pi}{2}, o'rinli; \end{cases} \quad n = 3 \Rightarrow$$

$$\Rightarrow \begin{cases} x = 3\pi, chet\ ildiz; \\ x = \frac{3\pi}{4}, o'rinli; \end{cases} \quad n = 4 \Rightarrow \begin{cases} x = 4\pi, chet\ ildiz; \\ x = \pi, o'rinli; \end{cases}$$

Yechimlar, $0, \frac{\pi}{4}, \frac{\pi}{2}, \frac{3\pi}{4}, \pi.$ Javobi: E.

60. $1 - 2\cos 2x > sin^2 2x$ tengsizlikni yeching.

A) $\left(\frac{\pi}{2} + \pi k;\ \pi + \pi k\right), k \in Z$

B) $\left(\frac{\pi}{3} + 2\pi k; \frac{2\pi}{3} + 2\pi k\right), k \in Z$

C) $\left(\frac{\pi}{4} + \pi k;\ \frac{3\pi}{4} + \pi k\right), k \in Z$

D) $\left(-\frac{\pi}{2} + \pi k; \frac{\pi}{2} + \pi k\right), k \in Z$

E) $\left(-\frac{\pi}{3} + 2\pi k;\ \frac{\pi}{3} + 2\pi k\right), k \in Z$

Yechilishi: $1 - 2\cos 2x > sin^2 2x \Rightarrow$

$$\Rightarrow 1 - 2\cos 2x > 1 - cos^2 2x \Rightarrow$$

$$\Rightarrow cos^2 2x - 2cos2x > 0 \Rightarrow cos2x(cos2x - 2) > 0 \Rightarrow$$

$$\Rightarrow \begin{cases} cos2x - 2 < 0 \\ cos2x < 0 \end{cases} \Rightarrow 2\pi k + \frac{\pi}{2} < 2x < \frac{3\pi}{2} + 2\pi k \Rightarrow$$

$$\Rightarrow \pi k + \frac{\pi}{4} < x < \frac{3\pi}{4} + \pi k, k\epsilon Z.$$ Javobi: C.

1998-YIL, 2-AXBOROTNOMA

1. $\dfrac{1,8}{\left(4\frac{2}{5}\cdot 6\frac{1}{3}-2\frac{1}{3}\cdot 4,4\right)\cdot\frac{5}{22}}$ ni hisoblang.

A)0,4   B)4,5   C)4,2   D)4,4   E)0,45

Yechilishi: $\dfrac{1,8}{\left(4\frac{2}{5}\cdot 6\frac{1}{3}-2\frac{1}{3}\cdot 4,4\right)\cdot\frac{5}{22}}=\dfrac{1,8}{\left(\frac{22}{5}*\frac{19}{3}*\frac{5}{22}-\frac{7}{3}*4,4*\frac{5}{22}\right)}=\dfrac{1,8}{\frac{19}{3}-\frac{7}{3}}=$

$=\dfrac{1,8}{\frac{12}{3}}=\dfrac{1,8}{4}=\dfrac{18}{40}=\dfrac{9}{20}=0,45.$ Javobi: E.

2. 8 va 12 sonlari eng kichuk umumiy karralisining natural bo'luvchilari nechta?

A)6   B)7   C)8   D)9   E)10

Yechilishi: $8=2^3;$ $12=2^2\cdot 3;$

8	2
4	2
2	2
1	

12	2
6	2
3	3
1	

$(8;12)=2^3\cdot 3=24;$

2 ning natural bo'luvchilarini toppish uchun 2^3 va 3 ning daraja ko'rsatkichlariga 1qo'shilib ko'paytiriladi.

24	2
12	2
6	2
3	3
1	

$24=2^3\cdot 3\Rightarrow(3+1)(1+1)=8.$

Javobi: C.

3. Quyidagi sonlarning qaysi biri 15 ga qoldiqsiz bo'linmaydi?

A)6525   B)3105   C)4620   D)6145   E)1245

Yechilishi: 5 va 3 ga bo`linsa 15 ga ham bo'linadi.

Javobi: D.

4. Hovuzdagi suv 2 ta quvur orqali chiqariladi. Birinchi quvur to'la hovuzni 30 minutda, ikkal quvur birgalikda uni 18 minutda bo'shatadi. Ikkinvhi quvur to'la hovuzni necha minutda bo'shatadi?

A)50   B)45   C)42   D)48   E)52

$\Rightarrow \begin{cases} y_1 = -5 \\ y_2 = 1 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} \log_2 x_1 = -5 \\ \log_2 x_2 = 1 \end{cases}$

$\Rightarrow \begin{cases} x_1 = 2^{-5} \\ x_2 = 2^1 \end{cases} \Rightarrow (x_1;\ x_2) \Rightarrow$

$\Rightarrow (2^{-5}; 2).$ Javobi: E.

50. Konusning o'q kesimi – tomoni $\dfrac{6}{\sqrt{\pi}}$ ga teng bo'lgan muntazam uchburchak bo'lsa, uning yon sirti yuzasi qanchaga teng bo'ladi?

  A) 9   B) 18   C) 24   D) 28   E) 32

Yechilishi: $S_{yon} = \pi R l$;

$AB = AS = BS = \dfrac{6}{\sqrt{\pi}}$;

$R = \dfrac{3}{\sqrt{\pi}}$;

$S = \pi \cdot \dfrac{3}{\sqrt{\pi}} \cdot \dfrac{6}{\sqrt{\pi}} = 18.$ Javobi: B.

51. Qandaydir sonni 289 ga bo'linganda, qoldiq 287 ga teng bo'lsa, shu soni 17 ga bo'lgandagi qoldiqni toping?

A) 15   B) 2   C) 5   D) 16   E) 0

Yechish: $x = 17^2 \cdot a + 287$; $17^2 \cdot a$ soni 17 ga qoldiqsiz bo'linadi. Demak, $287 = 17 \cdot 16 + 15 \Rightarrow$ qoldiq 15.

Javobi: A.

52. Agar $xy = 4$; $yz = 7$ va $xz = 28$ ($y > 0$) bo'lsa, xyz ni toping.

A) -28   B) 28   C) 27   D) 56   E) -56

Yechilishi: $xy = 4$; $yz = 7$ va $xz = 28$ ($y > 0$); $xyz = ?$

$(xyz)^2 = x^2 \cdot y^2 \cdot z^2 = x \cdot y \cdot y \cdot z \cdot x \cdot z =$

$= 4 \cdot 7 \cdot 28 = 28^2 \Rightarrow x \cdot y \cdot z = 28.$ Javobi: B.

53. Qisqarmaydigan oddiy kasrning maxraj suratidan 6 birlikka katta. Agar kasrning surat va maxrajiga 5 ni qo'shsak , xosil bo'lgan kasirning qiymati $\dfrac{1}{2}$ ga teng bo'ladi. Berilgan kasrning suratini toping?

A) 5   B) 7   C) 6   D) 12   E) 1

Yechilishi: $\dfrac{x}{x+6} \Rightarrow \dfrac{x+5}{x+11} = \dfrac{1}{2} \Rightarrow 2x + 10 = x + 11 \Rightarrow x = 1.$

Javobi: E.

54. $\dfrac{0,202 - 0,004}{\frac{8}{9} \cdot 18 \cdot 0,125}$ ni hisoblang.

A) 0,099   B) 0,99   C) 0,0099   D) 1   E) 1,98

Yechilishi: $\dfrac{0,202-0,004}{\frac{8}{9}\cdot 18\cdot 0,125}=\dfrac{0,198}{8\cdot 0,25}=\dfrac{0,198}{2}=0,099.$

Javobi: A.

55. Agar $a>0,\ b>0$ va $c<0$ bo'lsa, $\sqrt[3]{a^3b^3c^3}$
quyidagilarning qaysi biriga teng bo'ladi?

  A) $a|bc|$ B) $-abc$ C) $ab|c|$ D) $|abc|$

  E) abc

Yechilishi: $a>0;$ $b>0;$ $c<0;$ $\sqrt[3]{a^3b^3c^3}=?$
$\sqrt[3]{a^3b^3c^3}=\sqrt[3]{a^3}\sqrt[3]{b^3}\sqrt[3]{c^3}=-abc.$ Javobi: B.

56. Uchta sonning o'rta geometrigi 6 ga teng bo'lib, ulardan
ikkitasi 8 va 9 bo'lsa, uchunchi son necha bo'ladi?

  A) 3   B) 7   C) -5   D) -3   E) 4

Yechilishi: O'rta geometrik qiymat$=\sqrt[n]{a_1\cdot a_2\cdot ...\cdot a_n};$
$6=\sqrt[3]{8\cdot 9\cdot x}\Rightarrow 6^3=8\cdot 9\cdot x\Rightarrow x=\dfrac{36\cdot 6}{8\cdot 9}=3.$ Javobi: A.

57. 9^{10} ni 7 ga bo'lgandagi qoldiqni toping.

  A) 1   B) 3   C) 2   D) 6   E) 4

Yechilishi: $9^{10}=(7+2)^{10}=7\cdot l+2^{10};$
$2^{10}=2\cdot 2^9=2\cdot(2^3)^3=2\cdot(7+1)^3=2\cdot 7m+2\cdot 1^3=$
$=2\cdot 7m+2.$ Javobi: C.

58. $\left(1997\frac{3}{5}-1996\frac{1}{6}\right)\cdot 1\frac{1}{29}$ ni hisoblang.

  A) $\dfrac{13}{29}$ B) $2\dfrac{1}{29}$ C) $1\dfrac{13}{29}$ D) $3\dfrac{1}{29}$ E) $1\dfrac{14}{29}$

Yechilishi: $\left(1997\frac{3}{5}-1996\frac{1}{6}\right)\cdot 1\frac{1}{29}=$
$=\left(1997+\frac{3}{5}-1996-\frac{1}{6}\right)\cdot\frac{30}{29}=\left(1+\frac{3}{5}-\frac{1}{6}\right)\cdot\frac{30}{29}=$
$=\frac{30+18-5}{30}\cdot\frac{30}{29}=1\frac{14}{29}.$ Javobi: E.

59. $\dfrac{\sqrt[3]{-24}+\sqrt[3]{81}+\sqrt[3]{192}}{\sqrt[3]{-375}}$ ni hisoblang;

  A) -1   B) 1   C) $-\dfrac{83}{125}$ D) $\dfrac{83}{125}$ E) 0,99

Yechilishi: $\dfrac{\sqrt[3]{-24}+\sqrt[3]{81}+\sqrt[3]{192}}{\sqrt[3]{-375}}=\dfrac{\sqrt[3]{-2^3\cdot 3}+\sqrt[3]{3^3\cdot 3}+\sqrt[3]{4^3\cdot 3}}{\sqrt[3]{-5^3\cdot 3}}=$

$=\dfrac{-2\sqrt[3]{3}+3\sqrt[3]{3}+4\sqrt[3]{3}}{-5\sqrt[3]{3}}=\dfrac{\sqrt[3]{3}(-2+3+4)}{-5\sqrt[3]{3}}=\dfrac{5}{-5}=-1.$ Javobi: A.

60. Agar $x^2+y^2=281\ va\ x-y=11$ bo'lsa, xy qanchaga teng bo'ladi?

A) 80   B) 160   C) -80   D) 40   E) -160

Yechilishi: $\begin{cases}x^2+y^2=281\\ x-y=11\end{cases}\Rightarrow\begin{cases}x^2+y^2=281\\ x^2+y^2-2xy=121\end{cases}\Rightarrow$

$\Rightarrow 281-2xy=121\Rightarrow 2xy=281-121\Rightarrow$

$\Rightarrow xy=\dfrac{160}{2}\Rightarrow xy=80.$ Javobi: A.

61. Agar x va y sonlari $x^2+y^2+(y-1)^2=2xy$ tenglikni qanoatlantirsa $x+y$ qanchaga teng bo'ladi?

A) 4   B) 1   C) 3   D) 2   E) 5

Yechilishi: $x^2+y^2+(y-1)^2=2xy\Rightarrow$

$\Rightarrow x^2-2xy+y^2+(y-1)^2=0\Rightarrow$

$\Rightarrow (x-y)^2+(y-1)^2=0\Rightarrow\begin{cases}(x-y)^2=0\\ (y-1)^2=0\end{cases}\Rightarrow$

$\Rightarrow\begin{cases}x-y=0\\ y-1=0\end{cases}\Rightarrow\begin{cases}x=y\\ y=1\end{cases}\Rightarrow\begin{cases}x=1\\ y=1\end{cases}\Rightarrow x+y=2.$

Javobi: D.

62. $\dfrac{x^{\sqrt[4]{\pi}}-y^{\sqrt[4]{\pi}}}{x^{2\sqrt[4]{\pi}}-y^{2\sqrt[4]{\pi}}}$ ni qisqartiring.

A) $\dfrac{1}{x^{\sqrt[4]{\pi}}+y^{\sqrt[4]{\pi}}}$ B) $x^{\sqrt{\pi}}+y^{\sqrt{\pi}}$ C) $x^{\sqrt{\pi}}-y^{\sqrt{\pi}}$

D) $\dfrac{1}{x^{\sqrt[4]{\pi}}-y^{\sqrt[4]{\pi}}}$ E) $x^{\frac{\pi}{2}}+y^{\frac{\pi}{2}}$

Yechilishi: $\dfrac{x^{\sqrt[4]{\pi}}-y^{\sqrt[4]{\pi}}}{x^{2\sqrt[4]{\pi}}-y^{2\sqrt[4]{\pi}}}=\dfrac{1}{x^{\sqrt[4]{\pi}}+y^{\sqrt[4]{\pi}}}.$ Javobi: A.

63. Quyidagi berilganlardan toq funksiyani toping?

A) $y=|x|-1$ B) $y=x(|x|+1)$ C) $y=-cosx$

D) $y = \begin{cases} -x, x \geq 0, \\ x, x < 0 \end{cases}$ E) $y = -x^2$

Yechilishi: $y(-x) = -x(|x| + 1) \Rightarrow y = x(|x| + 1)$.

Javobi: B.

64. Agar $|a| \leq 1$, $|b| \leq 1$ bo'lsa, $arccosa - 4arcsinb$ ifodaning eng katta qiymati qanchaga teng bo'ladi?

A) 2π B) 1   C) 3π D) 5π E) 4π

Yechilishi: $\begin{cases} |a| \leq 1, \\ |b| \leq 1 \end{cases} \Rightarrow$

$\begin{cases} -1 \leq a \leq 1; \\ -1 \leq b \leq 1; \end{cases}$ $\begin{cases} -\frac{\pi}{2} \leq arcsinb \leq \frac{\pi}{2} \\ 0 \leq arccosa \leq \pi \end{cases}$

$arccosa - 4arcsinb = \pi - 4\left(-\frac{\pi}{2}\right) = \pi + 2\pi = 3\pi$.

Javobi: C.

65. Agar $(x - 2)f(x - 2) + f(2x) + f(x + 2) = x + 6$ bo'lsa, $f(4)$ qanchaga teng bo'ladi?

A) 13   B) 2   C) 3   D) 4   E) 41

Yechilishi: $(x - 2)f(x - 2) + f(2x) + f(x + 2) = x + 6$; $x = 2 \Rightarrow 0 \cdot f(0) + f(4) + f(4) = 8 \Rightarrow$

$\Rightarrow 2f(4) = 8 \Rightarrow f(4) = 4$.   Javobi: D.

66. $y = \sqrt{9 - x^2}$ funksiya qiymatlar sohasini aniqlang?

A) $(-\infty; \infty)$ B) [-3; 3]   C) $[0; \infty)$

D) [0; 3]   E) [0; 9]

Yechilishi:

$y = \sqrt{9 - x^2} \Rightarrow \begin{cases} y \geq 0 \\ 9 - x^2 = 0 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} y \geq 0 \\ x^2 \leq 9 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} y \geq 0 \\ |x| = 3 \end{cases} \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases} y \geq 0 \\ -3 \leq x \leq 3 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} y \geq 0 \\ x = 0 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} y \geq 0 \\ y = 3 \end{cases} \Rightarrow 0 \leq y \leq 3 \Rightarrow$

[0; 3].

Javobi: D.

67. $y = \frac{3}{4-x}$ funksiyaning o'sish oraliqlarini toping.

A) $(-\infty;\ 4)\cup(4;\ \infty)$ B) R C) $(-\infty;\ \frac{3}{4})\cup(\frac{3}{4};\ \infty)$

D) R^+ E) $[4;\ \infty)$

Yechilishi:

$$y = \frac{3}{4-x} \Rightarrow y' = \frac{3'(4-x)-3(4-x)'}{(4-x)^2} = \frac{-3(0-1)}{(4-x)^2} = \frac{3}{(4-x)^2} \Rightarrow$$

$$y' > 0 \Rightarrow \frac{3}{(4-x)^2} > 0 \Rightarrow 4 - x \neq 0 \Rightarrow$$

$$\Rightarrow x \neq 4 \Rightarrow (-\infty;\ 4)\cup(4;\ \infty). \qquad \text{Javobi: A.}$$

68. Agar $(x^3 - x + 1)^3 + x$ ifoda standart shakldagi ko'phad ko'rinishda yozilsa, x ning toq darajalari oldidagi koeffisiyentlarning yig'indisi nechchiga teng bo'ladi?

A) 1   B) 7   C) 4   D) 5   E) 3

Yechilishi: $(x^3 - x + 1)^3 + x = [x^3 - (x - 1)]^3 + x =$

$$= x^9 - 3x^6(x - 1) + 3x^3(x - 1)^2 - (x - 1)^3 + x =$$

$$= x^9 - 3x^7 + 3x^6 + 3x^3(x^2 - 2x + 1) -$$

$$-(x^3 - 3x^2 + 3x - 1) + x =$$

$$= x^9 - 3x^7 + 3x^6 + 3x^5 - 6x^4 + 3x^3 - x^3 +$$

$$+3x^2 - 3x + 1 + x =$$

$$= x^9 - 3x^7 + 3x^6 + 3x^5 - 6x^4 + 2x^3 + 3x^2 - 2x + 1 =$$

$$= 1 - 3 + 3 + 2 - 2 = 1. \qquad \text{Javobi: A.}$$

69. $4^x - 5 \cdot 2^x + 3 = 0$ tenglama ildizlarning yig'indisini toping?

A) 5   B) $\log_2 3$ C) 3   D) $\log_2 5$ E) 8

Yechilishi: $4^x - 5 \cdot 2^x + 3 = 0 \Rightarrow 2^{2^x} - 5 \cdot 2^x + 3 = 0 \Rightarrow$

$$\Rightarrow (2^x)^2 - 5 \cdot 2^x + 3 = 0 \Rightarrow 2^x = y \Rightarrow$$

$$\Rightarrow y^2 - 5y + 3 = 0 \Rightarrow$$

$$\Rightarrow y_{1,2} = \frac{5}{2} \pm \sqrt{\frac{25}{4} - 3} = \frac{5}{2} \pm \sqrt{\frac{13}{4}} = \frac{5 \pm \sqrt{13}}{2} \Rightarrow$$

$$\Rightarrow \begin{cases} y_1 = \frac{5 - \sqrt{13}}{2}; \\ y_2 = \frac{5 + \sqrt{13}}{2}; \end{cases}$$

1) $2^{x_1} = \frac{5-\sqrt{13}}{2} \Rightarrow x_1 = \log_2 2 = \log_2 \frac{5-\sqrt{13}}{2} \Rightarrow$

$\Rightarrow x_1 = \log_2 \frac{5-\sqrt{13}}{2};$

2) $2^{x_2} = \frac{5+\sqrt{13}}{2} \Rightarrow x_2 = \log_2 2 = \log_2 \frac{5+\sqrt{13}}{2};$

3) $x_1 + x_2 = \log_2 \frac{5-\sqrt{13}}{2} + \log_2 \frac{5+\sqrt{13}}{2} =$

$\log_2 \frac{5-\sqrt{13}}{2} \cdot \frac{5+\sqrt{13}}{2} == \log_2 \frac{25-13}{4} = \log_2 3.$

Javobi: B.

70. $b^{-1}x^2 = 2x - b$ tenglik x ning qanday qiymatlarda to'g'ri bo'ladi?

A) b B) $\frac{b}{2}$ C) $-b$ D) $\frac{b}{2}; -b$ E) 1

Yechilishi: $b^{-1}x^2 = 2x - b \Rightarrow \frac{1}{b}x^2 - 2x + b = 0 \Rightarrow$

$\Rightarrow x^2 - 2bx + b^2 = 0 \Rightarrow x_{1,2} = b \pm \sqrt{b^2 - b^2} \Rightarrow$

$\Rightarrow x_1 = x_2 = b.$ Javobi: A.

71. $\frac{1-\frac{1}{x-1}}{1+\frac{1}{x-1}} = 0$ tenglamani yeching.

A) -2 B) 0 C) -1 D) 1 E) 2

Yechilishi: $\frac{1-\frac{1}{x-1}}{1+\frac{1}{x-1}} = 0;$

1) $x - 1 \neq 0 \Rightarrow x \neq 1;$

2) $1 - \frac{1}{x-1} = 0 \Rightarrow \frac{x-1-1}{x-1} = 0 \Rightarrow x = 2.$

Javobi: E.

72. $(\sin 40°)^{x^2-4x+4} \geq 1$ tengsizlikni yeching.

A) {2} B) [2; ∞) C) (-∞; 2] D) (-∞; ∞) E) ∅

Yechilishi: $(\sin 40°)^{x^2-4x+4} \geq 1 \Rightarrow (\sin 40°)^{(x-2)^2} \geq 1 \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases} 0 < \sin 40° < 1 \\ (x-2)^2 \geq 0 \end{cases} \Rightarrow x = 2.$ Javobi: A.

73. Agar $5x^2 - 3x - 1 = 0$ tenglamaning ildizlari $tg\alpha$ va $tg\beta$ bo'lsa, $tg(\alpha + \beta)$ qanchaga teng bo'ladi?

   A) $\frac{3}{2}$ B) 1   C) 3   D) $\frac{1}{2}$ E) 5

   Yechilishi: $5x^2 - 3x - 1 = 0 \Rightarrow x_{1,2} = \frac{3 \pm \sqrt{9 + 4 \cdot 5 \cdot 1}}{2 \cdot 5} = \frac{3 \pm \sqrt{29}}{10} \Rightarrow$

   $$\Rightarrow \begin{cases} tg\alpha = \frac{3 - \sqrt{29}}{10} \\ tg\beta = \frac{3 + \sqrt{29}}{10} \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} \alpha = arctg \frac{3 - \sqrt{29}}{10}; \\ \beta = arctg \frac{3 + \sqrt{29}}{10}. \end{cases}$$

   $$tg(\alpha + \beta) = \frac{tg\alpha + tg\beta}{1 - tg\alpha + tg\beta} = \frac{\frac{3 - \sqrt{29}}{10} + \frac{3 + \sqrt{29}}{10}}{1 - \frac{3 - \sqrt{29}}{10} \cdot \frac{3 + \sqrt{29}}{10}} = \frac{\frac{6}{10}}{1 - \frac{9 - 29}{100}} =$$

   $$= \frac{3}{5} : \frac{100 + 20}{100} = \frac{3}{5} : \frac{6}{5} = \frac{3}{5} \cdot \frac{5}{6} = \frac{1}{2}. \qquad \text{Javobi: D.}$$

74. $arccosx > arccosx^2$ tengsizlikni yeching.

   A) $(0; 1)$ B) $[-1; 0)$ C) $[-1; 1]$
   D) $(-\infty; 0) \cup (1; \infty)$ E) $(1; \infty)$

   Yechilishi: $arccosx > arccosx^2$;

   $$arccos\alpha > arccos\beta \Rightarrow \begin{cases} \alpha < \beta; \\ \alpha \le -1; \\ \beta \le 1. \end{cases} \text{ Bundan}$$

   $$\begin{cases} -1 \le x \le 1 \\ 0 \le x^2 \le 1 \\ x^2 > x \Rightarrow x^2 - x > 0 \Rightarrow x(x - 1) > 0 \Rightarrow \begin{cases} x_1 = 0; \\ x_2 = 1. \end{cases} \end{cases}$$

   Kvadrat tengsizlikning yechimlari to'plamidan:
   $[-1; 0) \cup (1; \infty) \Rightarrow [-1; 0).$ Javobi: B.

75. (a_n) arifmetik progressiyaga $a_1 = 3$, $a_{60} = 57$ progressiyaning dastlabki 60 ta hadi yig'indisi qanchaga teng bo'ladi?

   A) 1500   B) $\frac{3423}{2}$ C) 1600   D) 1800   E) 6000

   Yechilishi: $a_1 = 3$; $a_{60} = 57$; $S_{60} = ?$
   $S_{60} = \frac{57 + 3}{2} \cdot 60 = 60 \cdot 30 = 1800.$ Javobi: D.

76. Qaysi nuqtada $y = 1 + e^{x-1}$ funksiyaning grafigiga o'tkazilgan urinma OX o'qi bilan $45°$ li burchak hosil qiladi?

A) $x = 1$ B) $x = 0$ C) $x = -1$

D) $x = 2$ E) $x = -2$

Yechilishi: $y = 1 + e^{x-1} \Rightarrow y' = e^{x-1} \Rightarrow y'(x_0) =$
$= e^{x_0-1} \Rightarrow \quad \Rightarrow k = e^{x_0-1} \Rightarrow tg\alpha = e^{x_0-1} \Rightarrow tg\,45° =$
$= e^{x_0} \cdot e^{-1} \Rightarrow$
$\Rightarrow 1 = e^{x_0} \cdot e^{-1} \Rightarrow e^{x_0} = e \Rightarrow x_0 = 1.$

Javobi: A.

77. Agar $f(x)$ funksiyaning grafigiga $x_0 = 2$ nuqtada o'tkazilgan urinmaning tenglamasi $2x - 3y = 6$ bo'lsa, $f'(2)$ qanchaga teng bo'ladi.

A) $\dfrac{2}{3}$ B) $\dfrac{3}{2}$ C) 2   D) 3   E) 4

Yechilishi: $y - y_0 = f'(x_0)(x - x_0) \Rightarrow 2x - 3y = 6$;
$x_0 = 2; \quad f'(2) = ? \quad 3y = 2x - 6 \Rightarrow y = \dfrac{2}{3}x - 2 \Rightarrow$
$\Rightarrow k = \dfrac{2}{3} \Rightarrow f'(2) = \dfrac{2}{3}.$ Javobi: A.

78. $y = \sqrt{x} + \sqrt[3]{x}$ ning boshlag'ich funksiyasini toping.

A) $\dfrac{2}{3}\sqrt{x^3} + \dfrac{3}{4}\sqrt[3]{x^4} + C$ B) $\dfrac{3}{2}\sqrt{x^3} + \dfrac{3}{4}\sqrt[3]{x^4} + C$

C) $\dfrac{2}{3}\sqrt{x^3} + \dfrac{3}{4}\sqrt[3]{x} + C$ D) $\dfrac{2}{3}\sqrt{x^3} + \dfrac{3}{4}\sqrt{x^4} + C$

E) $\dfrac{1}{3}\sqrt{x^3} + \dfrac{1}{4}\sqrt[3]{x^4} + C$

Yechilishi: $y = \sqrt{x} + \sqrt[3]{x};$ $F(x) = ?$

$F(x) = \int (x^{\frac{1}{2}} + x^{\frac{1}{3}})dx = \dfrac{x^{\frac{1}{2}+1}}{\frac{1}{2}+1} + \dfrac{x^{\frac{1}{3}+1}}{\frac{1}{3}+1} + c = \dfrac{x^{\frac{3}{2}}}{\frac{3}{2}} + \dfrac{x^{\frac{4}{3}}}{\frac{4}{3}} + c =$

$= \dfrac{2}{3}\sqrt{x^3} + \dfrac{3}{4}\sqrt[3]{x^4} + c.$ Javobi: A.

79. m ning qaysi qiymatda $y = 1$ to'g'ri chiziq , $y = x^2 - 2x + m$ parabolaga urinadi?

A) 4   B) 1   C) 3   D) 2   E) 5

Pirnazar DAVRONOV

Yechilishi: $\begin{cases} y = 1 \\ y = x^2 - 2x + m \end{cases} \Rightarrow 1 = x^2 - 2x + m \Rightarrow$

$\Rightarrow x^2 - 2x + m - 1 = 0 \Rightarrow D = b^2 - 4ac =$

$= (-2)^2 - 4 \cdot 1(m - 1) = 4 - 4m + 4 = 8 - 4m \Rightarrow$

$\Rightarrow D = 0 \Rightarrow 8 - 4m = 0 \Rightarrow m = 2.$ Javobi: D.

80. Ikki to'g'ri chiziqning kesishishidan hosil bo'lgan burchaklarning biri 30° ga teng. Qolgan burchaklarni toping.

A) 150°; 150°; 30°;   B) 110°; 110°; 110°;
C) 60°; 60°; 30°;   D) 120°; 120°; 90°;
E) 130°; 130°; 70°;

Yechilishi: $x + 30° = 180° \Rightarrow$
$\Rightarrow x = 150°.$ Demak, 150°; 150°; 30°;
Javobi: A.

81. Teng yonli uchburchakning asosdagi burchagi 40° ga teng. Bu uchburchakning yon tomonlari orasidagi burchakka qo'shni bo'lgan tashqi burchaklarning qiymatni toping?

A) 90°   B) 100°   C) 140°   D) 50°   E) 80°

Yechilishi: Uchburchakning tashqi burchagi o'ziga qo'shni bo'lmagan burchaklar yig'indisiga teng

$x + 40° + 40° = 180° \Rightarrow x = 100°;$
$\gamma = 180° - 100° = 80°.$
Javobi: E.

82. To'g'ri burchak uchburchakning o'tkir burchagi 60° ga, gepotenuzasi tushirilgan balandligi 9 ga teng. Gepotenuzasini toping.

A) $12\sqrt{3}$ B) $12\sqrt{2}$ C) 12   D) $9\sqrt{3}$ E) $6\sqrt{3}$

Yechilishi: $b = \frac{c}{2}; a = c \cdot cos30° =$

$= c \cdot \frac{\sqrt{3}}{2};$

250

$$a = \frac{\sqrt{3}}{2}c \Rightarrow H = \frac{ab}{c} \Rightarrow 9 = \frac{\frac{\sqrt{3}c}{2} \cdot \frac{c}{2}}{c} \Rightarrow$$

$$\Rightarrow 9c = \frac{\sqrt{3}}{4}c^2 \Rightarrow \sqrt{3}c = 36 \Rightarrow$$

$$\Rightarrow c = \frac{36}{\sqrt{3}} = \frac{36 \cdot \sqrt{3}}{3} = 12\sqrt{3} \Rightarrow c = 12\sqrt{3}. \quad \text{Javobi: A.}$$

83. Teng yonli trapetsiyaning asoslari 12 va 6 ga teng. Uning diagonallari o'zaro perpendikulyar bo'lsa, trapetsiyaning yuzi qanchaga teng bo'ladi?

A) 80　　　B) 64　　　C) 72　　　D) 81　　　E) 100

Yechilishi: $S =?$　$\frac{OB}{AB} = tg45° \Rightarrow$

$$\Rightarrow OB = 6 \cdot tg45° \Rightarrow$$
$$\Rightarrow OB = 6; \quad \frac{OG}{GD} = tg45° \Rightarrow$$
$$\Rightarrow OG = GD \cdot tg45° \Rightarrow OG = 3 \Rightarrow$$
$$\Rightarrow BG = OB + OG = 6 + 3 = 9;$$
$$S = \frac{a+b}{2} \cdot h = \frac{12+6}{2} \cdot 9 = 81. \quad \text{Javobi: D.}$$

84. PA urinma 4 ga, PB kesma 2 ga teng. Aylananing radiusini toping?

A) 3　　　B) 5　　　C) $3\sqrt{3}$

D) $4\sqrt{2}$　　　E) $2\sqrt{3}$

Yechilishi: $PA = 4$　$PB = 2$　$R =?$

$$(R + 2)^2 = 4^2 + R^2 \Rightarrow$$
$$\Rightarrow R^2 + 4R + 4 = 16 + R^2 \Rightarrow R = 3.$$

Javobi: A.

85. Rombning tomoni unga ichki chizilgan aylananing urinish nuqtasida 2 va 18 ga teng kesmalarga bo'linadi. Ichki chizilgan aylananing radiusini toping.

A) 9　　　B) 10　　　C) 4

D) 6　　　E) 3

Yechilishi: $AD = 2; BD = 18;$

$OD = r; \ r = ?$

$OD^2 = BD \cdot AD \Rightarrow r^2 = 18 \cdot 2 = 36 \Rightarrow r = 6.$

Javobi: D.

86. $\vec{a}$ va $\vec{b}$ birlik vektorlar orasidagi burchak $30°$.

$|\vec{a} + \vec{b}|$ ni toping.

A) $\sqrt{2 + \sqrt{3}}$ B) $\sqrt{2}$ C) $\sqrt{2 - \sqrt{3}}$ D) 1   E) $2 + \sqrt{3}$

Yechilishi: $|\vec{a}| = |\vec{b}| = 1; \ (\vec{a}{}^{\wedge}\vec{b}) = 30°; \quad |\vec{a} + \vec{b}| = ?$

$|\vec{a} + \vec{b}|^2 = \vec{a}^2 + 2\vec{a} \cdot \vec{b} + \vec{b}^2 = |\vec{a}|^2 + |\vec{b}|^2 = 2\vec{a} \cdot \vec{b} =$

$= 1 + 1 + 2 \cdot |\vec{a}| \cdot |\vec{b}| \cdot \cos 30° = 2 + 2 \cdot 1 \cdot 1 \cdot \dfrac{\sqrt{3}}{2} =$

$= 2 + \sqrt{3} \Rightarrow |\vec{a} + \vec{b}| = \sqrt{2 + \sqrt{3}}.$ Javobi: A.

87. $y = -x - 1; \ y = x - 1$ to'g'ri chiziqlar va OX o'qi bilan chegaralangan uchburchakning yuzini toping.

A) 2   B) 1   C) $\dfrac{1}{2}$ D) $\dfrac{\sqrt{2}}{2}$ E) $-\dfrac{\sqrt{2}}{2}$

Yechilishi: Uchta to'g'ri chiziqning

Kesishish nuqtalarini topish uchun

tenglamalarini sistema qilib

yechiladi: $\begin{cases} y = -x - 1; \\ y = x - 1; \\ \quad y = 0. \end{cases}$

$S = \dfrac{1}{2}ah = \dfrac{1}{2} \cdot 2 \cdot 1 = 1$

Javobi: B.

88. Radiusi R ga teng aylanaga tashqi chizilgan muntazam olti burchakning tomonini toping;

A) $\dfrac{\sqrt{3}}{2}R$ B) $\sqrt{3}R$ C) $\dfrac{4}{3}R$ D) $\dfrac{3}{4}R$ E) $\dfrac{2}{\sqrt{3}}R$

Yechilishi: $180°(n-2) \Rightarrow 180° \cdot 4 = 720° \Rightarrow$

$\Rightarrow 720° : 6 = 120°;$

$R : \dfrac{a}{2} = tg 60° \Rightarrow \dfrac{2R}{a} = \sqrt{3} \Rightarrow$

$\Rightarrow a = \dfrac{2}{\sqrt{3}} \cdot R.$ Javobi: E.

89. Muntazam sakkiz burchakning nechta dioganali bor?

A) 8   B) 10   C) 24   D) 16   E) 20

Yechilishi: $\frac{n(n-3)}{2} = \frac{8 \cdot 5}{2} = 20;$ 20 ta.   Javobi: E.

90. Konusning yasovchisi 12 ga teng va u asos tekisligi bilan $60°$ li burchak hosil qiladi. Konus asosining radiusini toping?

A) 12   B) 6   C) 3

D) 2   E) 4

Yechilishi: $\frac{R}{12} = cos60° \Rightarrow$

$\Rightarrow R = 12 \cdot \frac{1}{2} \Rightarrow R = 6.$

Javobi: B.

91. Uchburchakli piramida asosining tomonlari 6, 8 va 10 ga teng. Piramidaning yon qirrasi asos tekisligi bilan bir xil burchak hosil qiladi. Agar piramidaning balandligi 4 ga teng bo'lsa , yon qirrasi qanchaga teng bo'ladi?

A) $\sqrt{41}$ B) 3   C) 4   D) 5   E) 7

Yechilishi: $AC = 6; \; AB = 8; \; BC = 10;$

$SO = 4; \quad SB = ?$

$S_\Delta = \frac{1}{2} \cdot 6 \cdot 8 = 24;$

$R = \frac{abc}{4S} = \frac{6 \cdot 8 \cdot 10}{4 \cdot 24} = 5;$

$l^2 = h^2 + R^2 = 4^2 + 5^2 =$

$= 16 + 25 = 41 \Rightarrow l = \sqrt{41}.$

Javobi: A.

92. Kesik konus asoslarning radiuslari 1 va 5 ga teng . Agar balandligi 3 ga teng bo'lsa, uning yasovchisi qanchaga teng bo'ladi?

A) 6   B) 3   C) 4

D) 5   E) 12

Yechilishi: $l^2 = 3^2 + 4^2 = 9 + 16 = 25 \Rightarrow$

$\Rightarrow l = 5.$

Javobi: D.

93. Uchburchakli to'g'ri prizma asosining tomonlari 3, 4 va 5 ga teng. Prizmaning hajmi 18 ga teng bo'lsa, uning balandligi qanchaga teng bo'ladi?

  A) 12   B) 6   C) 9

  D) 3   E) 2

Yechilishi: $S_{asos} = \frac{1}{2} \cdot 3 \cdot 4 = 6;$

$V = S_{asos} \cdot H \Rightarrow$

$\Rightarrow 18 = 6 \cdot H \Rightarrow H = 3.$

Javobi: D.

94. $\vec{a} = \{3;\ 6;\ -n\}$ va $\vec{b} = \{-2;\ m;\ 4\}$ vektorlar kollinear bo'lsa, n va m nechiga teng?

  A) $n = 6, m = -4$ B) $n = -6\ m = -4$

  C) $n = -4\ m = 6$ D) $n = 6\ m = 4$

  E) $n = 6\ m = -2$

Yechilishi: $\vec{a} = \{3; 6;\ -n\};\quad \vec{b} = \{-2; m; 4\};$

$\vec{a} = \lambda\vec{b} \Rightarrow \{3; 6;\ -n\} = \lambda \cdot \{-2; m; 4\} \Rightarrow$

$\Rightarrow \{3; 6;\ -n\} = \{-2\lambda; m\lambda; 4\lambda\} \Rightarrow$

$$\Rightarrow \begin{cases} -2\lambda = 3 \\ \lambda m = 6 \\ 4\lambda = -n \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} \lambda = -\frac{3}{2} \\ m = \frac{6}{\lambda} \\ n = -4\lambda \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} \lambda = -\frac{3}{2} \\ m = 6 : \left(-\frac{3}{2}\right) \\ n = -4 \cdot \left(-\frac{3}{2}\right) \end{cases} \Rightarrow$$

$$\Rightarrow \begin{cases} m = -6 \cdot \frac{2}{3} \\ n = 6 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} m = -4; \\ n = 6. \end{cases} \quad \text{Javobi: A.}$$

95. Uchburchakning tomonlari sharga urinadi. Sharning radiusi 4 ga teng . Shar markazidan uchburchak tekisligigacha masofa 3 ga teng bo'lsa, uchburchakka ichki chizilgan aylananing radiusi qanchaga teng bo'ladi?

A) $\sqrt{7}$ B) 1   C) 3,5   D) 5   E) 2

Yechilishi: $OA = 4$; $OO_1 = 3$;

$O_1A =$? $O_1A^2 = OA^2 - OO_1^2 =$

$= 4^2 - 3^2 = 7 \Rightarrow$

$O_1A = \sqrt{7}$.   Javobi: A.

96. Piramidaning asosidagi barcha 2 yoqli burchaklari $60°$ ga teng. Pramida yon sirtining yuzi 36 ga teng bo'lsa, asosning yuzi qanchaga teng bo'ladi?

 A) 36   B) 18   C) $18\sqrt{2}$

 D) $18\sqrt{3}$ E) 24

Yechilishi: $S = \dfrac{S_{asos}}{cosa} \Rightarrow$

$\Rightarrow S_{asos} = 36 \cdot cos60° = 18 \Rightarrow$

$\Rightarrow S_{asos} = 18.$

Javobi: B.

97. Agar $tg\alpha + ctg\alpha = a\ (a > 0)$ bo'lsa,

$\sqrt{tga} + \sqrt{ctga} = a\ (a > 0)$ qiymati qanchaga teng bo'ladi?

A) $\sqrt{a+2}$ B) $a - 2$ C) $\sqrt{2} + \sqrt{a}$

D) $a + 2$ E) $\sqrt{a} - \sqrt{2}$

Yechilishi: $tg\alpha + ctg\alpha = a,\ (a > 0)$; $\sqrt{tga} + \sqrt{ctga} =$?

$(\sqrt{tga} + \sqrt{ctga})^2 = tga + 2\sqrt{tga \cdot ctga} + ctga =$

$= tga + ctga + 2 \cdot \sqrt{tga \cdot ctga} = a + 2\sqrt{1} = a + 2 \Rightarrow$

$\Rightarrow (\sqrt{tga} + \sqrt{ctga})^2 = a + 2 \Rightarrow \sqrt{tga} + \sqrt{ctga} = \sqrt{a+2}.$

Javobi: A.

98. Qiyidagi sonlarning eng kattasini toping?

 A) $sin170°$ B) $sin\ 20°$ C) $sin(-30°)$

 D) $sin(-250°)$ E) $sin\ 100°$

Yechilishi: A) $sin70° = sin(90° + 70°) = cos70°$

B) $sin20° = sin(90° - 70°) = cos70°$

C) $sin(-30°) = -\dfrac{1}{2}$

D) $sin(-250°) = -sin(270° - 20°) = cos20°$

E) $sin100° = sin(90° + 10°) = cos10°$.   Javobi: E.

99. $2cos^2 \frac{x}{2} = 1 + cos x + cos 2x$ tenglamani yeching?

A) $\frac{\pi}{4} + \frac{\pi k}{2}$ $k \in Z$ B) $\frac{\pi}{4} + \pi k$ $k \in Z$ C) $\frac{\pi k}{2}$ $k \in Z$

D) πk $k \in Z$ E) $\frac{\pi}{6} + \frac{\pi k}{2}$ $k \in Z$

Yechilishi: $2cos^2 \frac{x}{2} = 1 + cos x + cos 2x \Rightarrow$

$\Rightarrow 2 \cdot \frac{1+cosx}{2} = 1 + cos x + cos 2x \Rightarrow cos2x = 0 \Rightarrow$

$\Rightarrow 2x = \frac{\pi}{2} + k\pi \Rightarrow x = \frac{\pi}{4} + \frac{k\pi}{2},$ $k \in Z.$ Javobi: A.

100. $(cos x + 2) |x - 5|(x - 2) \leq 0$ tengsizlikni yeching.

A) $(-\infty ; 2] \cup \{5\}$ B) $(-\infty ; 2]$ C) $[2; 5]$

D) $\{5\}$ E) $\emptyset$

Yechilishi: $(cos x + 2)|x - 5|(x - 2) \leq 0 \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases} (cos x + 2) > 0 \\ |x - 5| \geq 0 \\ (x - 2) \leq 0 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x = 5; \\ x \leq 2. \end{cases}$ Javobi: A.

101. Agar $sin x - \frac{1}{sin x} = -3$ bo'lsa, $sin^2 x + \frac{1}{sin^2 x}$ ning

qiymatini qanchaga teng bo'ladi?

A) 7   B) 8   C) 9   D) 11   E) 6

Yechilishi: $sin x - \frac{1}{sin x} = -3;$ $sin^2 x + \frac{1}{sin^2 x} = ?$

$sin^2 x - 2 \cdot sinx \cdot \frac{1}{sinx} + \frac{1}{sin^2 x} = 9 \Rightarrow$

$\Rightarrow sin^2 x + \frac{1}{sin^2 x} = 11.$ Javobi: D.

102. $tg\pi x^2 = tg(\pi x^2 + 2\pi x)$ tenglamaning eng kichik musbat

ildizni toping.

A) $\frac{1}{2}$ B) $\frac{1}{3}$ C) 1   D) $\frac{3}{4}$ E) $\frac{\sqrt{2}}{2}$

Yechilishi: $tg\pi x^2 = tg(\pi x^2 + 2\pi x);$

Bir ismli funksiyalar tengligidan: $tgx = tg\varphi \Rightarrow x - \varphi = k\pi;$

$$\pi x^2 - (\pi x^2 + 2\pi x) = k\pi \Rightarrow \pi x^2 - \pi x^2 - 2\pi x = k\pi \Rightarrow$$
$$2\pi x = -k\pi \Rightarrow 2x = -k \Rightarrow x = -\frac{k}{2} \Rightarrow k = -1 \Rightarrow x = \frac{1}{2}.$$

Javobi: A.

103. $\sin 75° - sin15°$ ni hisoblang.

A) $\frac{\sqrt{2}}{2}$ B) $\frac{\sqrt{3}}{2}$ C) $\sqrt{2}$ D) $-\sqrt{2}$ E) $-\frac{\sqrt{2}}{2}$

Yechilishi: $\sin 75° - sin15° = 2cos45° \cdot sin30° =$

$= 2 \cdot \frac{\sqrt{2}}{2} \cdot \frac{1}{2} = \frac{\sqrt{2}}{2}.$ Javobi: A.

104. Agar $\sin\alpha = \frac{3}{5}$, $\sin\beta = \frac{5}{13}$; $\frac{\pi}{2} < \alpha < \pi$ va $\frac{\pi}{2} < \beta <$
π bo'lsa, $\sin(\alpha - \beta)$ ning qiymati qanchaga teng.?

A) $-\frac{16}{65}$ B) $\frac{16}{65}$ C) $\frac{56}{65}$ D) $-\frac{56}{65}$ E) $-\frac{2}{13}$

Yechilishi: $\sin\alpha = \frac{3}{5}$, $\sin\beta = \frac{5}{13}$; $\frac{\pi}{2} < \alpha < \pi$ va
$\frac{\pi}{2} < \beta < \pi$; $\sin(\alpha - \beta) =?$

$\sin\alpha = \sqrt{1 - \cos^2\alpha}$;

$\cos\alpha = \sqrt{1 - \sin^2\alpha} = -\sqrt{1 - \frac{9}{25}} = -\frac{4}{5};$

$\cos\beta = -\sqrt{1 - \frac{25}{169}} = -\sqrt{\frac{144}{169}} = -\frac{12}{13}$;

$\sin(\alpha - \beta) = sin\alpha cos\beta - cos\alpha sin\beta =$
$= \frac{3}{5} \cdot \left(-\frac{12}{13}\right) - \left(-\frac{4}{5}\right) \cdot \frac{5}{13} = -\frac{36}{65} + \frac{20}{65} = \frac{-36+20}{65} = -\frac{16}{65}.$

Javobi: A.

105. $\cos^2(\pi - x) + \cos^2\left(\frac{\pi}{2} + x\right)$ ifodani soddalashtiring?

A) π B) Cos x   C) $\sin^2 x$ C) 2   E) 1

Yechilishi: $\cos^2(\pi - x) + \cos^2\left(\frac{\pi}{2} + x\right) =$

$= [\cos(\pi - x)]^2 + [\cos\left(\frac{\pi}{2} + x\right)]^2 = [cosx]^2 + [sinx]^2 = 1.$

Javobi: E.

1998-YIL, 12-AXBOROTNOMA

1. $(360 + x) \cdot 1002 = 731460$ dan x ni toping.

   A) 370   B) 270   C) 470   D) 730   E) 1090

   Yechilishi: $(360 + x) \cdot 1002 = 731460 \Rightarrow 360 + x = 730 \Rightarrow$

   $\Rightarrow x = 730 - 360 \Rightarrow x = 370.$ Javobi: A.

2. $\dfrac{244 \cdot 395 - 151}{244 + 395 \cdot 243}$ ni hisoblang.

   A) 1   B) 2   C) 470   D) 1/2   E) $1\frac{1}{2}$

   Yechilishi: $\dfrac{244 \cdot 395 - 151}{244 + 395 \cdot 243} = \dfrac{96380 - 151}{244 + 95985} = \dfrac{96229}{96229} = 1.$

   Javobi: A.

3. Qaysi tenglik qoldiqli bo'lishni ifodalaydi.

   1) $47 = 4 \cdot 11 + 3$ 2) $47 = 6 \cdot 6 + 11$

   3) $47 = 9 \cdot 5 + 2$ 4) $47 = 7 \cdot 7 - 2$

   A) 1;3   B) 1;2;3   C) 1;4   D) 2;3   E) hammasi

   Javobi: A.

4. x raqamining qanday eng katta qiymatida $(471 + \overline{2x3})$ soni 3 ga qoldiqsiz bo'linadi?

   A) 7   B) 8   C) 9   D) 4   E) 5

   Yechilishi: $(471 + \overline{2x3}):3 =$

   $= (471 + 2 \cdot 100 + 10 \cdot x + 3):3 =$

   $= (671 + 10 \cdot 7 + 3):3 = 248.$ Javobi: A.

5. Davri 0 yoki 9 dan faqrli bo'lgan cheksiz davriy o'nli kasrlarni ko'rsating

   $m = 2{,}3266\ldots,\ \ n = \dfrac{7}{99},\ \ p = \dfrac{5}{16},$

   $q = 7{,}14522\ldots,\ \ l = 3{,}222.$

   A) m, n B) m, q C) m, n, q D) m, n, p E) hammasi

   Yechilishi: $m = \dfrac{1}{0{,}33} = \dfrac{1}{\frac{33}{100}} = \dfrac{100}{33} = 3\dfrac{1}{33} = 3\dfrac{1 \cdot 3}{33 \cdot 3} =$

$$= 3\frac{3}{99} = 3,(03);$$
$$q = \frac{172}{99} = 1\frac{77}{99} = 1,(73);$$
$$l = \frac{17}{20} = 0,85. \qquad \text{Javobi: C.}$$

6. $m = 0,22(23), \quad n = 0,2(223), \quad l = 0,222(3)$ sonlarni o'sish tartibida yozing.

A) $n < m < l$ B) $l < m < n$ C) $m < n < l$
D) $m < l < n$ E) $n < l < m$

Yechilishi: $m = 0,22232323 \ldots$;
$n = 0,2223223223 \ldots$;
$l = 0,222333 \ldots \Rightarrow l > m > n \Rightarrow n < m < l.$ Javobi: A.

7. $m = \sqrt[4]{2,56}, \quad n = 3,4(25), \quad p = 3,142 \ldots$ va

$q = \sqrt{\sqrt{\sqrt{16}} + 2}$ sonlardan qaysilari irratsional son bo'ladi?

A) m, p B) p, q C) m, q D) p E) hammasi

Yechilishi: Davriy bo'lmagan cheksiz o'nli kasrga irratsional son deyiladi. $m = \sqrt[4]{2,56}; \quad n = 3,4(25)$
$p = 3,142 \ldots$;

$$q = \sqrt{\sqrt{\sqrt{16}} + 2}; \quad m = \sqrt{\sqrt{2,56}} = \sqrt{1,6} = 1,264911 \ldots ;$$

$$q = \sqrt{\sqrt{\sqrt{16}} + 2} = \sqrt{\sqrt{4} + 2} = \sqrt{2 + 2} = 2 \quad \text{Demak,}$$
$m; p.$

Javobi: A.

8. $\dfrac{3,21 \cdot 5,95 - 4,44}{2,21 \cdot 5,95 + 1,51}$ ni hisoblang.

A) 1   B) 2   C) ½   D) $1\frac{1}{2}$ E) 61/186

Yechilishi: $\dfrac{3,21 \cdot 5,95 - 4,44}{2,21 \cdot 5,95 + 1,51} = \dfrac{19,0995 - 4,44}{13,1495 + 1,51} = \dfrac{14,6595}{14,6595} = 1.$

Javobi: A.

9. $\dfrac{(5,2^2-4,8^2)\cdot(16,7^2-6,7^2)}{(12^2-11,4^2)\cdot(6,4^2-3,6^2)}$ ni hisoblang.

A) $2\dfrac{8}{21}$ B) $\dfrac{21}{5}$ C) $1\dfrac{8}{21}$ D) $7/50$ E) $7\dfrac{1}{7}$

Yechilishi: $\dfrac{(5,2^2-4,8^2)\cdot(16,7^2-6,7^2)}{(12^2-11,4^2)\cdot(6,4^2-3,6^2)}=$

$=\dfrac{(5,2-4,8)(5,2-4,8)(16,7-6,7)(16,7+6,7)}{(12-11,4)(12+11,4)(6,4-3,6)(6,4+3,6)}=\dfrac{0,4\cdot10\cdot10\cdot23,4}{0,6\cdot23,4\cdot2,8\cdot10}=$

$\dfrac{4\cdot10}{0,6\cdot28}==\dfrac{10}{4,2}=\dfrac{5}{2,1}=\dfrac{50}{21}=2\dfrac{8}{21}.$ Javobi: A.

10. Son o'qida -2 dan 4,7 birlik masofada joylashgan sonlarni aniqlang.

   A) $-6,7;\ 2,7$ B) $-6,7;\ -2,7$ C) $6,7;\ 2,7$

   D) $-6,7$ E) $-2,7$

   Yechilishi:

-6,7   2,7

                                 Javobi: A.

      -6   -5   -4 -3 -2 -1 0 1 2

11. $(2\dfrac{1}{2}-1\dfrac{3}{8})\cdot(3\dfrac{1}{2}-\dfrac{3}{6})\cdot1\dfrac{1}{3}$ ni hisoblang.

A) 4 B) 8 C)$4\dfrac{1}{2}$ D) 12 E) 3

Yechilishi: $(2\dfrac{1}{2}-1\dfrac{3}{8})\cdot(3\dfrac{1}{2}-\dfrac{3}{6})\cdot1\dfrac{1}{3}=(\dfrac{5}{2}-\dfrac{11}{8})\cdot(\dfrac{7}{2}-\dfrac{1}{2})\cdot$

$\dfrac{4}{3}==\dfrac{20-11}{8}\cdot\dfrac{7-1}{2}\cdot\dfrac{4}{3}=\dfrac{9\cdot6\cdot1}{2\cdot2\cdot3}=\dfrac{9}{2}=4\dfrac{1}{2}.$ Javobi: C.

12. $(12,5-x):5=(3,6+x):6$ tenglamani yeching.

   A) $5\dfrac{2}{11}$ B) $5\dfrac{3}{11}$ C) $5\dfrac{4}{11}$ D) $5\dfrac{1}{11}$ E) $5\dfrac{5}{11}$

Yechilishi: $(12,5-x):5=(3,6+x):6\Rightarrow$

$\Rightarrow\dfrac{12,5-x}{5}=\dfrac{3,6+x}{6}\Rightarrow(12,5-x)\cdot6=(3,6+x)\cdot5\Rightarrow$

$\Rightarrow75-6x=18+5x\Rightarrow11x=57\Rightarrow x=\dfrac{57}{11}=5\dfrac{2}{11}.$

Javobi: A.

13. $\left(\sqrt[6]{9+4\sqrt5}+\sqrt[3]{\sqrt5+2}\right)\cdot\sqrt[3]{\sqrt5-2}$ hisoblang.

A) 2 B) 1 C) 3 D) 4 E) 6

Yechilishi: $\left(\sqrt[6]{9 + 4\sqrt{5}} + \sqrt[3]{\sqrt{5} + 2}\right) \cdot \sqrt[3]{\sqrt{5} - 2} =$

$= \sqrt[6]{9 + 4\sqrt{5}} \cdot \sqrt[6]{\left(\sqrt{5} - 2\right)^2} + \sqrt[3]{\left(\sqrt{5} + 2\right)\left(\sqrt{5} - 2\right)} =$

$= \sqrt[6]{9 + 4\sqrt{5}} \cdot \sqrt[6]{\left(5 - 4\sqrt{5} + 4\right)} + 1 =$

$= \sqrt[6]{\left(9 + 4\sqrt{5}\right) \cdot \left(9 - 4\sqrt{5}\right)} + 1 = \sqrt[6]{81 - 80} + 1 = 2.$

Javobi: A.

14. $m = 1107/1109$ va $n = 2216/2220$ sonlar uchun quyidagi munosabatlardan qaysi biri to'g'ri?

  A) $m < n$ B) $m > n$ C) $m = n$

  D) $n = m + 1$ E) $(2m + 2)/2220$

  Yechilishi: $m = \dfrac{1107}{1109} = \dfrac{1109 - 2}{1109} = 1 - \dfrac{2}{1109};$

  $n = \dfrac{2216}{2220} = \dfrac{2 \cdot 1108}{2 \cdot 1110} = \dfrac{1110 - 2}{1110} = 1 - \dfrac{2}{110} \Rightarrow n > m.$

  Javobi: A.

15. $c = \sqrt{12} + \sqrt{15}$ va $d = \sqrt{11} + \sqrt{17}$ sonlar uchun qaysi munosabat o'rinli?

  A) $c < d$ B) $c > d$ C) $c + 1 = d$

  D) $c = d$ E) $c^2 + 1 + \sqrt{7} = d^2$

  Yechilishi:

  $\begin{cases} c^2 = 12 + 15 + 2\sqrt{12} \cdot \sqrt{15} = 27 + 2\sqrt{180} \\ d^2 = 11 + 17 + 2\sqrt{11 \cdot 17} = 28 + 2\sqrt{187} \end{cases} \Rightarrow$

  $\Rightarrow c^2 < d^2 \Rightarrow c < d.$ Javobi: A.

16. O'zaro teskari sonlarni aniqlang?

  1. $\dfrac{\sqrt{5}}{3}$ va $\dfrac{3\sqrt{5}}{5}$;   2. $3 - \sqrt{2}$ va $3 + \sqrt{2}$;

  3. $\dfrac{2\sqrt{3}}{5}$ va $\dfrac{5\sqrt{3}}{6}$;   4. $\sqrt{2} + 1$ va $\sqrt{2} - 1$

  A) 1;3;4;   B) 1;2;3;   C) 2;3;4   D) 1;3   E) 2;4;

Pirnazar DAVRONOV

Yechilishi: Ko'paytmasi 1 ga teng bo'lgan sonlar o'zaro teskari sonlar deyiladi: 1) $\frac{\sqrt{5}}{3} \cdot \frac{3\sqrt{5}}{5} = 1$;

2) $(3 - \sqrt{2}) \cdot (3 + \sqrt{2}) = 9 - 4 = 5$;

3) $\frac{2\sqrt{3}}{5} \cdot \frac{5\sqrt{3}}{6} = 1$;   4) $(\sqrt{2} + 1) \cdot (\sqrt{2} - 1) = 2 - 1 = 1$.

Demak, 1; 3; 4.   Javobi: A.

17. $\sqrt[4]{97 + 56\sqrt{3}}$ ni soddalashtiring.

A) $\sqrt{3} + 2$ B) $\sqrt{2} + 3$ C) $\sqrt{2} + \sqrt{3}$

D) $7 + 4\sqrt{3}$ E) $\sqrt{3} + 3$

Yechilishi: $\sqrt[4]{97 + 56\sqrt{3}} = \sqrt{\sqrt{97 + 56\sqrt{3}}} =$

$= \sqrt{\sqrt{97 + \sqrt{3136 \cdot 3}}} = \sqrt{\sqrt{97 + \sqrt{9408}}} =$

$= \sqrt{\sqrt{\frac{97 + \sqrt{9409 - 9408}}{2}} + \sqrt{\frac{97 - \sqrt{9409 - 9408}}{2}}} =$

$= \sqrt{\sqrt{\frac{97 + 1}{2}} + \sqrt{\frac{97 - 1}{2}}} = \sqrt{\sqrt{49} + \sqrt{48}} = \sqrt{7 + \sqrt{48}} =$

$= \sqrt{\frac{7 + \sqrt{49 - 48}}{2}} + \sqrt{\frac{7 - \sqrt{49 - 48}}{2}} = \sqrt{4} + \sqrt{3} = 2 + \sqrt{3}$.

Javobi: A.

18. a ning qanday qiymatida $\frac{a^3}{a^2 - 1}$ kasrning qanday qiymati 27/8 ga teng bo'ladi?

A) 3   B) 2   C) 27   D) 8   E) 9

Yechilishi: $\frac{a^3}{a^2 - 1} = \frac{27}{8} \Rightarrow a = 3$.   Javobi: A.

19. Agar $a - b = 12$ va $-a \cdot b + a^2 = 144$ bo'lsa, a ning qiymati qanchaga teng bo'ladi?

A) 12   B) -12   C) 36   D) 6   E) $\sqrt{3}$

Yechilishi: $\begin{cases} a - b = 12 \\ a^2 - ab = 144 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} a - b = 12 \\ a(a - b) = 144 \end{cases} \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases} a - b = 12 \\ a \cdot 12 = 144 \end{cases} \Rightarrow a = 12.$ Javobi: A.

20. $\dfrac{4}{x+3} + \dfrac{7}{\sqrt{x+3}} = \dfrac{1}{x^2+5x+6}$ tenglamada x ning qabul qilishi

mumkin bo'lgan qiymatlar to'plamini ko'rsating.

A) $(-3; -2) \cup (-2 \, \infty)$ B) $(-3; -2)$ C) $(-2; \infty)$

D) $(-\infty; -2)$ E) $[-3; -2) \cup (-2; \infty)$

Yechilishi: $\dfrac{4}{x+3} + \dfrac{7}{\sqrt{x+3}} = \dfrac{1}{x^2+5x+6}$;

$x^2 + 5x + 6 = 0 \Rightarrow x_{1,2} = -\dfrac{5}{2} \pm \sqrt{\dfrac{25}{4} + 6} = -\dfrac{5}{2} \pm \dfrac{1}{2} \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases} x_1 = -3 \\ x_2 = -2 \end{cases} \Rightarrow x^2 + 5x + 6 = (x + 3)(x + 2);$

$x + 3 > 0 \Rightarrow x > -3 \Rightarrow$

$\Rightarrow x + 2 \neq 0 \Rightarrow x \neq -2;$

$(-3; -2) \cup (-2; -\infty).$ Javobi: A.

21. $f(x) = lg cos x$ funksiyaning qiymatlar to'plamini

toping.

A) $(-\infty; 0)$ B) $(-\infty; \infty)$ C) $(-1; 1)$

D) $(-1; 0)$ E) $(0; \infty)$

Yechilishi: $f(x) = \lg cos x \Rightarrow \begin{cases} 10 > 1 \\ 0 < cos x \leq 1 \end{cases} \Rightarrow$

$\Rightarrow f(x) \leq 0 \Rightarrow (-\infty; 0].$ Javobi: A.

22. Quyidagilardan qaysilari o'suvchi funksiya hisoblanadi?

1) $y = 3^x$;   2) $y = (\sqrt[3]{10})^x$

3) $y = \left(\dfrac{9}{11}\right)^x$ 4) $y = (\dfrac{5}{3})^x$;   5) $y = 0{,}84^x$

A) 1;2;4   B) 1;2;3   C) 3;4;5   D) 2;3;4   E) 1;4;5

Yechilishi: $y = a^x$ ko'rsatkichli funksiya $a > 1$ da

o'suvchi bo'ladi. Demak, 1), 2) va 4)   Javobi: A.

23. $\frac{5 \cdot 2^{32} - 4 \cdot 2^{30}}{4^{16}}$ ni hisoblang.

   A) 4 B) 2 C) 5 D) 16 E) ¼

   Yechilishi: $\frac{5 \cdot 2^{32} - 4 \cdot 2^{30}}{4^{16}} = \frac{5 \cdot 2^{32} - 2^2 \cdot 2^{30}}{(2^2)^{16}} = \frac{5 \cdot 2^{32} - 2^{32}}{2^{32}} =$

   $\frac{2^{32}(5-1)}{2^{32}} = 4.$

   Javobi: A.

24. $\frac{3^{4n+3} \cdot 3^{3n-2}}{3^{2n-1}}$ ni soddalashtirng?

   A) 3^{5n+2} B) 3^{5n+3} C) 3^{5n+1} D) 3^{5n-1} E) 3^{5n+4}

   Yechilishi: $\frac{3^{4n+3} \cdot 3^{3n-2}}{3^{2n-1}} = \frac{3^{7n+1}}{3^{2n-1}} = 3^{7n+1-(2n-1)} =$

   $3^{7n+1-2n+1} =$

   $= 3^{5n+2}.$ Javobi: A.

25. $(a+b)$ ni ab va $a^2 + b^2$ orqali ifodalang.

   A) $(a+b)^2 - 2ab$ B) $(a+b)^2 - ab$ C) $(a+b)^2 - 4ab$ D) $(a+b) \cdot ab$ E) $(a+b)^2 + 2ab$

   Yechilishi: $(a+b)^2 = a^2 + b^2 + 2ab \Rightarrow$

   $\Rightarrow a^2 + b^2 = (a+b)^2 - 2ab.$ Javobi: A.

26. $\frac{x^2 - x + 1}{x^4 + x^2 + 1}$ ni qisqartiring?

   A) $\frac{1}{x^2 + x + 1}$ B) $\frac{1}{x^2 - 2x - 1}$ C) $\frac{1}{x^2 - x + 1}$

   D) $\frac{1}{x^2 - x - 1}$ E) $\frac{1}{x^2 - 2x + 1}$

   Yechilishi: Maxraj suratga bo'linib, ko'paytuvchilarga ajratiladi. $\frac{x^2 - x + 1}{x^4 + x^2 + 1} = \frac{x^2 - x + 1}{(x^2 + x + 1)(x^2 - x + 1)} = \frac{1}{x^2 - x + 1}.$ Javobi: A.

27. $\frac{2a^2 + 4ab - 6b^2}{a^2 + 5ab + 6b^2}$ ni soddalashtiring?

   A) $\frac{2(a-b)}{a+2b}$ B) $\frac{a-b}{a+2b}$ C) $\frac{2a-b}{a+2b}$ D) $\frac{a+2b}{2(a-b)}$ E) $\frac{2(a-b)}{a+b}$

   Yechilishi: $\frac{2a^2 + 4ab - 6b^2}{a^2 + 5ab + 6b^2}$

   $= \frac{2(a^2 + 2ab - 3b^2)}{a^2 + 5ab + 6b^2} = \frac{2(a-b)(a+3b)}{(a+2b)(a+3b)} =$

$$= \frac{2(a-b)}{a+2b}.$$ Javobi: A.

28. $10(ax - 1) = 2a - 5x - 9$ tenglama a ning qanday qiymatlarida cheksiz ko'p yechimga ega?

A) -1/2   B) 2   C) 1/2   D) -2   E) 1/5

Yechilishia: $10(ax - 1) = 2a - 5x - 9$ ⇒

⇒ $10ax - 10 = -5x + 2a - 9$ ⇒

⇒ $\begin{cases} 10a = -5 \\ 2a - 9 = -10 \end{cases}$ ⇒ $a = -\frac{1}{2}.$ Javobi: A.

29. (Ox) o'qqa nisbatan $y = 2x + 3$ to'g'ri chiziqga simmetrik bo'lgan to'g'ri chiziqning tenglamasini ko'rsating?

A) $y = -2x - 3$ B) $y = 2x - 3$ C) $y = -2x + 3$

D) $y = 3x - 2$ E) $y = \frac{1}{2}x + \frac{1}{3}$

Yechilishi: 1) Boshlang'ich ordinata $b = 3$. Bundan $A(0; 3)$. Bunga simmetrik nuqta $A'(0; -3)$ bo'ladi

2) $\begin{cases} y = 2x + 3 \\ y = 0 \end{cases}$ ⇒

⇒ $x = -\frac{3}{2}$ ⇒ $B(-\frac{3}{2}; 0)$;

U holda A' va B nuqtalardan o'tuvchi to'g'ro chiziq hosil qilinadi.

$$\frac{x - 0}{-\frac{3}{2} - 0} = \frac{y - (-3)}{0 - (-3)} \Rightarrow -\frac{2x}{3} = \frac{y+3}{3} \Rightarrow$$

⇒ $y = -2x - 3.$

Javobi: A.

30. Ikki sonning yig'indisi 51 ga ayirmasi esa 21 ga teng. Shu sonlarni toping.

A) 36;15   B) 35;16   C) 37;14   D) 34;17   E) 33;18

Yechilishi: $\begin{cases} x + y = 51 \\ x - y = 21 \end{cases}$ + ⇒ $2x = 72 \Rightarrow x = 36 \Rightarrow y = 15.$

Javobi: A.

Pirnazar DAVRONOV

31. $\begin{cases} \dfrac{x}{4} + \dfrac{y}{4} = 2 \\ \dfrac{x}{6} + \dfrac{y}{3} = 2 \end{cases}$ tenglamalar sistemasini yeching?

    A) (4;4)   B) (-4;-4)   C) (-4;4)

    D) (4;-4)   E) cheksiz ko'p yechimga ega

Yechilishi: $\begin{cases} \dfrac{x}{4} + \dfrac{y}{4} = 2 \\ \dfrac{x}{6} + \dfrac{y}{3} = 2 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x + y = 8 \\ x + 2y = 12 \end{cases} \Rightarrow$

$\Rightarrow -y = -4 \Rightarrow \begin{cases} x = 4; \\ y = 4. \end{cases}$ Javobi: A.

32. m ning qanday qiymatlarida $3x^2 + (3m - 15)x - 27 = 0$ tenglamaning ildizlari qarama qarshi sonlar bo'ladi ?

   A) 5   B) 0   C) -3,3   D) -5   E) 0; 5

Yechilishi: 1) $ax^2 + bx + c = 0 \Rightarrow b = 0, \ c < 0$ ga x_1 va x_2 qarama-qarshi ishorali bo'ladi.

$3m - 15 = 0 \Rightarrow m = 5; \ c = -27 < 0.$ Javobi: A.

33. $x^2 + px + 6 = 0$ tenglama ildizlari ayirmasining kvadrati 40 ga teng. p ning qiymatini toping.

A) -8 ; 8   B) 8   C) -8   D) $4 + \sqrt{10}$ E) $4 - \sqrt{10}$

Yechilishi:

$\begin{cases} x_1 + x_2 = -p \\ (x_1 - x_2)^2 = 40 \\ x_1 \cdot x_2 = 6 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x_1^2 + x_2^2 + 2x_1 \cdot x_2 = p^2 \\ x_1^2 + x_2^2 - 2x_1 \cdot x_2 = 40 \\ x_1 \cdot x_2 = 6 \end{cases} \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases} x_1^2 + x_2^2 + 12 = p^2 \\ x_1^2 + x_2^2 - 12 = 40 \end{cases} \Rightarrow 24 = p^2 - 40 \Rightarrow$

$\Rightarrow p^2 = 24 + 40 \Rightarrow p = \pm 8.$ Javobi: A.

34. $a > b > 0$ shartni qanoatlantiruvchi a va b sonlar uchun quyidagi munosabatlardan qaysilari o'rinli?

1) $a^3 > ab^2$;   2) $a^4 \geq a^2 b^2$;   3) $a^2 b^2 < b^4$;   4) $\dfrac{2}{a} > \dfrac{2}{b}$;

A) 1   B) 1;2   C) 3   D) 4   E) 2;4

Yechilishi: 1) $a^3 > ab^2 \Rightarrow a^2 > b^2$; to'g'ri.

2) $a^4 \geq a^2 b^2 \Rightarrow a^2 \geq b^2$ to'g'ri emas.

3) $a^2 b^2 < b^4 \Rightarrow a^2 < b^2$ to'g'ri emas.

4) $\frac{2}{a} > \frac{2}{b} \Rightarrow 2b > 2a \Rightarrow a < b$ to'g'ri emas. Javobi: A.

35. $\begin{cases} \frac{x-1}{2} < \frac{x}{3} \\ \frac{x+1}{2} \geq \frac{x}{5} \end{cases}$ tengsizliklar sistemasi butun yechimlarining

yig'indisini toping.

  A) 2   B) 3   C) -1   D) -3   E) 1

Yechilishi: $\begin{cases} \frac{x-1}{2} < \frac{x}{3} \\ \frac{x+1}{2} \geq \frac{x}{5} \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} 3x - 3 < 2x \\ 5x + 5 \geq 2x \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x < 3 \\ x \geq -\frac{5}{3} \end{cases} \Rightarrow$

$\Rightarrow -1 + 0 + 1 + 2 = 2.$ Javobi: A.

36. Arifmetik progressiya uchun quyidagi formulalardan qaysilari to'g'ri ?

   1) $a_1 - 2a_2 + a_3 = 0$;   2) $a_1 = a_3 - a_2$;   3) $n = \frac{a_n - a_1 + d}{d}$

   A) 1;3   B) 1   C) 2   D) 1;2   E) hammasi

   Yechilishi: 1) $a_1 - 2a_2 + a_3 = 0 \Rightarrow$

   $\Rightarrow 2a_2 = a_1 + a_3 = 0 \Rightarrow a_2 = \frac{a_1 + a_3}{2}$ to'g'ri;

   2) $a_1 = a_3 - a_2$ noto'g'ri;

   3) $n = \frac{a_n - a_1 + d}{d} \Rightarrow a_n - a_1 + d = dn \Rightarrow$

   $\Rightarrow a_n = a_1 + d(n-1)$ to'g'ri.   Javobi: E.

37. Quyidagi ketma-ketliklardan qaysilari geometrik progressiyani tashkil etadi?

   1) $a_n = \frac{2}{3} \cdot 2^n$;   2) $a_n = 3 \cdot 2^{-n} + 5$;   3) $b_n = (-\frac{1}{3})^n$.

   A) 1;3   B) 1;2   C) 2;3   D) 1;2;3   E) hech qaysisi

   Yechilishi: 1) $a_n = \frac{2}{3} \cdot 2^n$; $a_n = a_1 q^{n-1}$;

   $a_1 = \frac{4}{3}$; $a_2 = \frac{8}{3}$; $a_3 = \frac{16}{3}$; ...; $a_n = \frac{2}{3} \cdot 2^n$; progressiya;

2) $a_n = 3 \cdot 2^{-n} + 5$;

$a_1 = \frac{3}{2} + 5 = \frac{13}{2}$; $a_2 = \frac{3}{4} + 5 = \frac{23}{4}$; progressiya emas;

3) $b_n = (-\frac{1}{3})^n$;

$b_1 = -\frac{1}{3}$; $b_2 = \frac{1}{9}$; $b_3 = -\frac{1}{27}$; ... progressiya;

Javobi: A.

38. $y = -\frac{1}{3}\cos(3x + \frac{\pi}{4})$ funksiyaning hosilasini toping .

A) $sin(3x + \frac{\pi}{4})$ B) $-\frac{1}{3} sin(3x + \frac{\pi}{4})$ C) $\frac{1}{3}$
$sin(3x + \frac{\pi}{4})$

D) $- sin(3x + \frac{\pi}{4})$ E) $sin 3x$

Yechilishi: $y = -\frac{1}{3}\cos\left(3x + \frac{\pi}{4}\right) \Rightarrow$

$\Rightarrow y' = -\frac{1}{3}\left[-\sin\left(3x + \frac{\pi}{4}\right)\right] \cdot (3x + \frac{\pi}{4})' =$

$= \frac{1}{3}\sin\left(3x + \frac{\pi}{4}\right) \cdot 3 = \sin\left(3x + \frac{\pi}{4}\right).$ Javobi: A.

39. $y = e^x \cdot x^2$ funksiyaning hosilasini toping.

A) $e^x(x^2 + 2x)$ B) $e^x(x^2 + 2)$ C) $e^x(x^2 + 1)$
D) $e^x(x^2 + x)$ E) $2 e^x$

Yechilishi: $y' = e^x \cdot x^2 + e^x \cdot 2x = e^x(x^2 + 2x).$

Javobi: A.

40. $\int_0^2(|x| + 1)dx$ ni hisoblang.

A) 4   B) 2   C) 3
D) 8   E) 1

Yechilishi: $y = |x| + 1$ funksiyaning
grafigiga $[0; 2]$ oraliqda abssissa
o'qidan yuqorida joylashgan. Modul
belgisi shunday tashlanadi.

$\int_0^2(|x| + 1)dx = \int_0^2(x + 1)dx =$

$= [\frac{x^2}{2} + x]_0^2 = \frac{1}{2} \cdot 2^2 + 2 = 4.$ Javobi: A.

268

41. Parallel ko'chirish natijasida grafiklari ustma-ust tushadigan funksiyalarni ko'rsating.

1) $y = 3x^3$ 2) $-3x^3$;   3) $-\frac{1}{3}x^3$;   4) $\frac{1}{3}x^3$

A) bundaylari yuq   B) 1;2   C) 3;4
D) 1;3   E) hammasi

Yechilishi: $\begin{cases} x' = x + a; \\ y' = y + b; \end{cases}$

1) $y = 3x^3$;

x	-2	-1	0	1	2
y	-24	-3	0	3	24

2) $y = -3x^2$;

x	-1	0	2
y	3	0	-3

3) $y = -\frac{1}{3}x^2$

x	-2	-1	0	1	2
y	2,6	-0,3	0	-0,3	2,6

4) $y = \frac{1}{3}x^3$;

x	-2	-1	0	1	2
y	-2,6	-0,3	0	0,3	2,6

Javobi: A.

269

42. $y = log_3 x$ funksiyaning grafigi koordinata tekisligining qaysi choraklarida yotadi?

   A) 1, 4;　　　　B) 1;2　　　　　C) 2;3

   D) 3;4　　　　E)2;4

   Yechilishi: $y = log_3 x \begin{cases} 3 > 1 \\ x > 0 \end{cases} \Rightarrow$

   $\Rightarrow$　$I\ va\ IV$.

   Javobi: A.

43. $9 \cdot 16^x - 7 \cdot 12^x - 16 \cdot 9^x = 0$ tenglamaning ildizlari yig'indisini toping.

   A) 2　　　　B) -2　　　　　C) 3　　　　　D) -1　　　　　E)1

   Yechilishi:　$9 \cdot 16^x - 7 \cdot 12^x - 16 \cdot 9^x = 0 \Rightarrow$

   $\Rightarrow \frac{9 \cdot 16^x}{12^x} - 7 - \frac{16 \cdot 9^x}{12^x} = 0 \Rightarrow 9 \cdot \left(\frac{16}{12}\right)^x - 7 - 16 \cdot \left(\frac{9}{12}\right)^x = 0 \Rightarrow$

   $\Rightarrow 9 \cdot \left(\frac{4}{3}\right)^x - 7 - 16 \left(\frac{3}{4}\right)^x = 0 \Rightarrow \left(\frac{4}{3}\right)^x = y \Rightarrow \left(\frac{3}{4}\right)^x = \frac{1}{y} \Rightarrow$

   $\Rightarrow 9y - 7 - \frac{16}{y} = 0 \Rightarrow 9y^2 - 7y - 16 = 0 \Rightarrow$

   $\Rightarrow y = \frac{7 \pm \sqrt{49 - 4 \cdot 9 \cdot 16}}{2 \cdot 9} = \frac{7 \pm 25}{18} \Rightarrow \begin{cases} y_1 = -1; \\ y_2 = \frac{16}{9}; \end{cases}$

   1) $\left(\frac{4}{3}\right)^x \neq -1$;

   2)) $\left(\frac{4}{3}\right)^x = \frac{16}{9} \Rightarrow \left(\frac{4}{3}\right)^x = \left(\frac{4}{3}\right)^2 \Rightarrow x = 2$.　　Javobi: A.

44. Radiusga teng bo'lgan vatarning uchlaridan o'tkazilgan urinmalar hosil qilgan burchaklarni toping.

   A)$120°, 60°$　　B) $90°, 90°$

   C) $100°, 80°$　　D) $140°, 40°$

   E) $150°, 30°$

   Yechilishi: Chizmadan ma'lumki,

   $120°$;　$60°$.

   Javobi: A.

45. Perimetri 48 ga teng bo'lgan uchburchakning har bir tomoni 4 ga teng kesmaga bo'lindi. Bo'linish nuqtalari

